

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OBIDOVA KAMOLAXON KOMILJON QIZINING

MUSTAQILLIK YILLARIDA TELEVIDENIYE SOHASIDA  
ERISHILGAN YUTUQLAR

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi U.Mansurov

Namangan - 2015

## MUNDARIJA

Kirish.....

I BOB. O'zbekistonda televidenie va teletarmoqlarining vujudga kelishi va taraqqiyoti.

1.1. Teletarqatish tarmoqlarining (televidenie) rivojlanishi tarixiga nazar.....

1.2. O'zbekistonda televideniening shakllanishi va uning rivojlanish yo'nalishlari.....

II BOB. XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asrning boshlarida O'zbekistonda televidenie taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari

2.1. 1970-1980 yillarda O'zbekiston televideniesining ko'rsatuvlar tarkibi.....

2.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston televideniesi taraqqiyoti.....

2.3. Yangi davr televideniesining xususiyatlari.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Biz mamlakatimizni demokratik yangilash, modernizatsiya va isloh qilish, inson xuquq va erkinliklarini ta'minlashni ezgu maqsad sifatida belgilab olgan bugungi kunda ommaviy axborot vositalarimiz oldiga xayotninmg o'zi murakkab, shu bilan birga, o'ta ma'suliyatli vazifalarni qo'ymoqda.

Ma'lumki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab qolmaydi. Shu bois avvalambor ro'y berishi mumkin bo'lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko'rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi.

Bizning orzu-maqсадlarimiz, intilishlarimiz barchaga ayon: xalqimizning erkin, farovon hayotiga kafolat beradigan, inson huquqlarini ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etadigan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishdir. Televidenie to'lqinlari orqali jamoatchilikni ana shu maqsadlar sari da'vat qilar ekanmiz, bunga erishish uchun qancha-qancha og'ir muammolarni echish va eski tuzum asoratlarini engib o'tish lozimligini, bunday vazifa o'z hayotini matbuot bilan bog'lagan jurnalist ahli zimmasiga naqadar murakkab mas'uliyat yuklashini barchamiz yaxshi tushunib olishimiz zarur<sup>1</sup>.

Siyosiy faoliyat, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish, aniq maqsad va yo'nalishlarga ega bo'lishni axborotsiz yoki televidenie vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Televidenie vositalari orqali avvalo insonlar siyosiy-ijtinioiy, iqtisodiy, madaniy xayotda xamda dunyo xamjamiyati, davlatlararo munosabatlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor bo'ladi<sup>2</sup>. Uni idrok etadi. Munosabat bildirishi, qabul qilishi xamda siyosiy jarayonlarning ishtirokchisiga aylanishi yoki aksincha, xolisona turishi xam mumkin. Lekin, nima bo'lganda xam bugungi xayot tarzimizni televidenie vositalarisiz tasavvur etolmaymiz. Televidenie vositalarini

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish–mamlakatimiz taraqqiyotininng asosiy mezonidir. 19- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 45.

<sup>2</sup> Rixsiev. B. To'lqinlar qanotida. - Toshkent: Fan, 1967. –B. 3.

ijtimoiy xayotdagi o'rni va roli oshib bormoqda. "Axborotlashgan jamiyat" to'g'risidagi qarashlarning negizi xam dunyoda axborot ko'lamining ortib borayotganligi bilan bog'liq.

"Axborot", "ommaviy axborot" atamaları XX asrda keng ishlatila boshlandi. Axborot mamlakatlar va dunyo xalqlarida bo'layotgan voqea va xodisalar to'grisida xabarni etkazish bilan xarakterlanadi. Televidenie vositalari esa uning ko'lamini va keng jamoatchilikka yo'naltirilganligini, qamrovini bildiradi. Ommaviy axborotni uning vositalarisiz, uzatish texnikasi, texnologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. U avvalo xalqlar, ijtimoiy guruxlar o'rtasida o'zaro munosabatlar, xulq-atvor normalarini, ijtimoiylashish jarayonlariga ta'sirining ortib borayotganligini; ikkinchidan, televidenie vositalari yangi texnologik uzatish vositalari imkoniyatlarning oshib borayotganligi bilan bog'liq. Bugun axborotni jamlash, asrash va uzatish jarayoni o'zgardi<sup>3</sup>.

"Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotganligi-bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasi desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi"<sup>4</sup>.

Yangi XXI asrning "axborot asri" bo'lishi xamda axborotning asosiy "resurs"ga aylanishi to'grisidagi qarashlar reallikka aylanib, ayrim mamlakatlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishini belgilamoqda. Axborot soxasidagi texnik taraqqiyot ko'pgina ijtimoiy, siyosiy muammolarni xam xal etish imkoniyatini berishga qodir ekanligi shubxasiz. Ayni paytda, ommaviy axborot vositalari, dunyoda "mafkuraviy kurash" yoki "inson ongi va tafakkurini egallash, unga ta'sir

---

<sup>3</sup> Abduazizova N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari,. -Toshkent: Akademiya, 2003. –B. 41.

<sup>4</sup> Karimov I.A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B. 12.

ko'rsatish" maydoni xamdir. Bugungi murakkab siyosiy mafkuraviy jarayonlar buni tasdiqlamoqda. Televidenie vositalari turli xalqlar madaniy xayotiga, tafakkur tarziga, urf-odat, an'analari, qadriyatlariga xam ta'sir ko'rsatish va ko'proq ta'sir "maydoniga" ega bo'lish imkoniyatiga ega. Dunyodagi barcha mamlakatlarda televidenie vositalari etakchi o'rin tutadi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy xayotida etakchi rol o'ynaganligi uchun xam ularga to'rtinchi xokimiyat tusini berish ommalashgan.

Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Televidenie bir so'z bilan aytganda, u jahonning, mamlakatning istagan burchagini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Bugunning eng dolzarb, eng qiziqarli voqealari bilan o'z uyimizda tanishtiradi. Televidenie ijtimoiy hayotda katta o'rin tutadi. O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalari, televidenie faoliyati va taraqqiyoti masalalariga oid bir qator tadqiqotlar olib borilgan, asarlar yaratilgan. Ushbu muammoga doir adabiyotlarni ikki guruhga ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Sovet davri nashrlari.
2. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar.

**Birinchi guruh** adabiyotlariga xos bo'lgan umumiy xususiyat u yoki bu masalalarni muhokama etish, tahlil qilish, ilmiy xulosalar chiqarish, mavjud tuzumning siyosiy-mafkuraviy negiziga, hukmron kuchning manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan ahamiyatlidir. Televideniening tarixi, uning jurnalistika va san'at sohasi sifatidagi spetsifik xususiyatlari, televidenie va tomoshabin, telejurnalist mahorati kabi masalalar V.A.Sappak, T.Bagirov, A.Ya.Yurovskiy, V.Egorov, R.A.Boretskiy, G.V.Kuznetsov, S.Muratov va boshqa mutaxassis olimlar tomonidan atroflicha tahlil qilingan.

**Ikkinchi guruhga** oid O'zbekiston televideniya sinig taraqqiyotiga oid

qator ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab chop etila boshladi. Bugunga qadar «Televizion teatr poetikasi», «O'rtoq TV», «Televidenie bizning do'stimiz», «Televidenie va adabiyot» kabi to'plamlar chop etilgan. O'zbekiston televideniesining tashkil topish tarixi, telejurnalistikaning ayrim muammolari haqida: O'.O'taev, T.Ernazarov, O.Tog'aeV, A.Shomaqsudov, A.Karimov, S.Umarov, H.Akbarov, Q.Ernazarov, N.Abdnazimova, I.Toshaliev, S.Ahrorov, F.Ro'ziev. Yu.Hamdarnov, F.Mo'minov, I.Abdxoliqov, I.Rahmatullaeva, F.Muhammadjonova, O.Tojiboeva, M.Asadullaev va boshqalarning tadqiqotlari mavjud.

**Tadqiqotning davriy chegarasi.** Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi XX asrning 20 yillaridan, to shu kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Chunki aynan shu yillarda (O'zbekistonda televidenie tarmoqlari vujudga keldi va rivojlanib bordi. Televidenie mamlakatimizning madaniy taraqqiyotida katta o'rin tutib kelmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy, metodologik holatidan, uning dolzarbligi, tadqiq etilishi darajasidan hamda tanlangan davr xususiyatidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda milliy televideniening sobiq sovet mustabid tuzumi davridagi ahvoli hamda milliy televideniyaning mustaqillik sharofati bilan yanada rivojlanish imkoniyatlarini vujudga kelishi, xalqimizning o'z mustaqil milliy televideniyasiga va milliy ko'rsatuvlariga ega bo'lishini organishdan iborat maqsad belgilandi. Mazkur **maqsadni** amalga oshirish o'z navbatida quyidagi **vazifalarni** belgilab beradi:

O'zbekistonda televideniyaning tashkil etilishi, uning sobiq sovet mustabid tuzumi davridagi faoliyatini ochib berish;

Mustaqillik sharofati bilan milliy televideniyaning vujudga kelishi jarayonlarini o'rnini ochib berish;

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini rivojlanishi va shu sohaga qaratilayotgan e'tiborni yoritib berish;

O'zbekiston televideniya sinig Vatanimiz hududida yashayotgan xalqlar orasida madaniy-ma'rifiy, ma'naviy, ilmiy-siyosiy dunyoqarashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berish;

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asoslari.** Mustaqillik yillaridagi tub o'zgarishlar, madaniy taraqqiyotimiz hususiyatlariga va ommaviy axborot vositalariga yangicha munosabat, ilmiy tahlilda xolislik, tarixiylik-ilmiylik bitiruv malakaviy ishining uslubiy asosini tashkil etadi.

Shuningdek, Prezident Islom Karimovning asarlari, ayniqsa "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, hamda "O'zbekistonning yangi tarix markazi tashkil etish to'g'risida" chiqarilgan hukumat qarorlarida holisona tarix yaratish bo'yicha bildirilgan fikrlar ushbu muammoni o'rganishda muhim nazariy asos bo'ldi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati** quyidagilardan iborat:

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida to'plangan ma'lumotlar va hosil bo'lgan xulosalar, O'zbekistonda televideniyaning taraqqiyoti to'grisidagi mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan milliy teleradio kompaniyalarning faoliyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi;

Bitiruv malakaviy ishi natijalari hamda to'plangan turli materiallardan O'zbekiston tarixi, Madaniyatshunoslik, San'at tarixi, Ommaviy axborot vositalari tarixi, Jahon sivilizasiyasi tarixi, Kino va televidenie tarixi va boshqa fanlarning o'qitilishi jarayonida, shuningdek amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida respublikada mustabid tuzum va mustaqillik yillarida chop etilgan ko'plab vaqtli matbuot materiallari, ilmiy asarlar va internet ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I. BOB. O'zbekistonda televidenie va teletarmoqlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti.**

### **1.1. Teletarqatish tarmog'ining (televideniye) rivojlanishi tarixiga nazar.**

1907 yilda Peterburg texnologiya instituti professor B.L.Rozing "elektr teleskopi" bilan juda ham qiziqib, taqvim ekran orqali ko'rinish tamoyillarini o'zlashtirdi. 1911 yil 9 mayda elektron nurli trubka ekraniga ko'chmas panjara ko'rinishi tushirildi. Keyinchalik televidenie sohasining rivojlanishi Toshkent shahri bilan bog'liq bo'ldi. O'rta Osiyo Davlat universiteti laboranti Boris Pavlovich Grabovskiy harakatlangan tasvirdagi televizion apparatlar ixtiro qilish bo'yicha ishlar olib bordi. U injenerlar V.I.Popov va N.G.Piskunovlar bilan hamkorlikda "radiotelefot" konstruksiya apparatini ishlab chiqdi va 1925 yil 9 noyabrda unga 4899 sonli buyurtma guvohtonmasi hamda keyinroq 5592 sonli patent berildi<sup>5</sup>.

Bu barcha zamonaviy televideniylarga o'rnatilgan asosiy elementlar to'plami loyihasi edi. Lekin o'sha vaqtlardagi moliyaviy holatlar, yordamchi apparatura va uskunalarning yetishmasligi "radio orqali ko'rish" bo'yicha olib borilayotgan ishlarni davom ettirish imkoniyatlarini bermadi. Shunda B.P.Grabovskiyning yordamchisi I.F.Belyanskiy yordam so'rab, Respublika raxbariyatiga murojaat qildi. Respublika raxbariyati ixtirochilarga kerakli e'tibor bilan qarab, ularga yetarli darajada mablag' ajratdi. Toshkent korxonasi va laboratoriyalariga televizion uskunalari uchun buyurtma berish uchun katta va keng yo'l ochildi. Buyurtmalar Toshkent zavodi metallistlari, universitet mutaxassislari va O'rta Osiyo aloqa okrugi ustaxonasi chilangarlari tomonidan bajarildi. "Tashgestrama" korxonasi konstruktori Vizgalin, injener-energetik Kopilovskiy ham shu ishlarda ishtirok etdilar. "Telefot" ning rasmiy sinovi - zamonaviy televizorlar dastlabkisining sinovi - 1928 yil 26 iyulda aloqa okrugi binosida O'rta Osiyo Davlat universiteti professori N.N.Zlatovratskiy boshchiligidagi komissiya ishtirokida bo'lib o'tdi. Bu marosim muvaffaqiyatli

---

<sup>5</sup> SHomaqsudov. A. Televidenie bizning do'stimiz. -Toshkent: Fan, 1991. – B. 17.

o'tdi - birinchi marotaba harakatdagi odam tasviri ko'rsatildi. 1928 yil 4 avgustda "telefot" ko'rsatuvlari Toshkent shahrining Alisher Navoiy ko'chasida ko'rsatildi. Ekranida harakatlanayotgan tramvay tasviri bor edi. "Telefot" tizimi takomillashib, sohaning boshqa variantlari, loyihalari va chizmalari paydo bo'la boshladi. Hozirgi kundagi zamonaviy televizorlarni, avvalgi vaqtlardagilarga nisbatan mukammal darajada olib chiqish uchun olimlar, konstruktorlar va injenerlar tomonidan barcha kerakli ishlar amalga oshirildi.

Roziq ham o'z izlanishlarini davom ettirarkan, 1922 yili takomillashtirilgan ixtirosi - radioteleskop uchun davlat patentini oldi. 1926-yilda esa " Elektroskopiya (masofada ko'rish) yaqin oradagi vazifalar va yutuqlar" nomli ilmiy maqolasini chop etdi. Bunda televizion uzatish-qabul qilish yo'lining prinsipial tehnik chizmalari o'z ifodasini topgan va rivojlantirilgan edi. Muallif ommaviy axborot vositalarining, xususan, o'sha davda "erishib bo'lmaydigan ijtimoiy aloqa" deb atalgan televideniening porloq kelajagini ko'rsatib berdi. Albatta, erishib bo'lmaslik deganda, Roziq masofa uzoqligini nazarda tutgan edi. Lekin keyinchalik, ko'rsatuvlar olib borish mumkin bo'lgan masofaning uzayib borishi natijasida, "erishib bo'lmaslik"ni zamonaviy tamaddun me'yorlari va moddiy boylik jihatidan tushunish joiz bo'lib qoldi<sup>6</sup>.

Ko'p tadqiqotchilar Toshkentni elektron televideniening vatani sifatida tilga olishadi. Lekin bu hamma tadqiqotchilar orasida tan olingan yagona fikr emas. Masalan, arman olimlari "oq-qora va rangli televideniening asoschisi, armanistonlik tadqiqotchi O.A.Adamyandir", degan fikrni olg'a suradilar<sup>7</sup>. Rivojlangan mamlakatlarda boshqa nuqtai nazarlar ham bor. Shu bilan bir qatorda, nufuzli mutaxassislarlarning ilmiy ishlari, jumladan, televizion jurnalistika sohasidagi yetakchi olim A.Ya.Yurovskiy tadqiqotlari ham Toshkentni yagona bo'lmasada, elektron televideniening vatanlaridan biri deb hisoblashga asos beradi. Xo'sh bu qachon va qay tarzda sodir bo'lgan edi.

---

<sup>6</sup> O'taev O'. Televidenie-davr ko'zguisi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 26.

<sup>7</sup> Karimov A. O'zbekistonda televidenie. - Toshkent: Fan, 1964. – B. 24.

Toshkentdagi ilk televidenie uzatuvchi va qabul qiluvchi moslama XX asrning 20 yillarida O'rta Osiyo Davlat universitetining fizika fakultetida loyihalashtirilgan bo'lib, uni ilmiy hodim Boris Grabovskiy amalga oshirdi. Grabovskiy Toshkentga kelib Rozingning ishlari bilan qiziqadi va Ivan Velyavskiy bilan hamkorlikda Rozing tasvirlagan apparatni yaratishga harakat qiladi. Barcha qiyinchiliklarga, zarur materiallar tanqisligiga qaramasdan, Grabovskiy bu murakkab texnik masalani yechishga muvaffaq bo'ladi. U yasagan televidenie ekran gugurt qutisiday kattalikda edi. Hovlida turgan bir odam o'z bosh kiyimini yechar va kiyar, buni esa xonada qo'yilgan teleekran oldida o'tirgan odamlar yaqqol ko'rib o'tirar edilar.

Dunyodagi eng birinchi elektron televidenie ko'rsatuvlaridan biri shu tarzda namoyon qilindi. Grabovskiy Rozing tomonidan qo'yilgan bosh masalani, ya'ni teletasvir, telesignallarni uzatishning elektron tizimini yaratish masalasini hal qila olgan edi va bu o'sha davr uchun juda katta yutuq edi. O'z tadqiqot ishlari davomida Grabovskiy Leningrad shahriga (hozirgi Sankt-Peterburg) borib, B.Rozing bilan uchrashadi, u esa hamkasbining mehnatini ma'qullaydi va qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, 1928-yil 30-iyunda Grabovskiy birinchi oq qora ko'rsatuvni namoyish etadi. Albatta bu ko'rsatuv hali ovozsiz, xira bo'lsada Grabovskiy Rozing va Belyanskiylarga 5592-raqamli patent beriladi, unga muvofiq "1925-yil noyabrda havola etilgan elektroteleskopiya apparati" ro'yhatdan o'tadi<sup>8</sup>.

Elektron televidenie texnikasi ko'pgina murakkab moslama va konstruksiyalardan tashkil topganligidan Grabovskiy ixtirochi keng tarqalmadi, shu bois yakka ixtirochilar, ular qanchalik iqtidorli bo'lishmasinlar, butun bir televidenie tizimini yaratishga qodir bo'la olmadilar. Bunday murakkab ishni nafaqat zarur mutaxassislar, balki, shuningdek, yetarli uskunalar, mablag'larga ega bo'lgan ilmiy markazlarga amalga oshirishlari mumkin edi.

Har holda shu iste'dodli ixtirochilar tufayli mazkur sohada faoliyat professional asosda yo'lga qo'yildi. 1930-yilda Butunittifoq elektrotexnika

---

<sup>8</sup> Rixsiev. B. To'liqlar qanotida. - Toshkent: Fan, 1967. – S. 12.

instituti tizimida yangi laboratoriya - televidenie laboratoriyasi ochilib, u Rozingning shogirdi professor P.V.Shmakov rahbarligi ostida ish boshladi. Konstruktorlar oldiga Nipkov aylanasi bilan uzatuvchi va qabul qiluvchi moslama yaratish masalasi qo'yildi va shu tarzda mexanik televideniening tajribaviy namunalari dunyoga keldi. Ularda bir kadr 30 qatorga bo'lingan holda, tasvir va ovoz esa alohida - alohida uzatilar edi. Shu bois har bir televizor ikkita - biri radio uchun, ikkinchisi qo'shimcha televizion moslama uchun mo'ljallangan qabul qilgichlarga ega edi.

1931-yil 1-oktabrda Moskva muntazam tajribaviy teleko'rsatuvlar boshlandi, ularni Smolensk, Leningrad, Kiev, Odessa, Xarkov, Nijniy Novgorod, Tomsk radiokonstruktorlari qabul qilishlari mumkin edi. Moskvaning o'zida texnik havaskorlar tomonidan o'ttizdan ortiq televizorlar yaratildi. Sanoatda ularni ishlab chiqarish hali yo'lga qo'yilmagan bo'lsa-da, havaskorlarga shunday apparat yaratish imkonini beradigan detallar, masalan, Nipkov aylanasi chiqarilgan edi<sup>9</sup>.

Leningrad, Odessa, Toshkent radioeshittirish stansiyalari ham o'z joylarida ko'rsatuvlar olib borishgan. "Pravda" gazetasi 1932-yil 15-aprelda o'z mushtariylariga Leningraddagi "Komintern" korxonasi 20 donadan iborat ilk televizorlar turkumini ishlab chiqarishga kirishganligi haqida xabar qildi. 1933 - yildan to 1936-yilgacha ekрани 3x4 sm bo'lgan "B-2" rusumidagi mahalliy televizorlardan 30.000 tasi iste'molga chiqarildi.

Bir vaqtning o'zida boshqa mamlakatlarda ham televidenie rivojlanib bordi. Rozing ishini davom ettirayotgan shogirdlaridan biri S.I.Kitayev 1931-yili yangi kuchliroq uzatuvchi trubka yaratdi. "Ikonoskop" nomini olgan bu moslarnaning yangiligi televizor ekraning kattalashtirilganligida edi. Shu yilning o'zida Rozingning boshqa shogirdi, Amerika Qo'shma Shtatlarida yashovchi V.K.Zvorokin ham huddi shunday apparatni yaratib, patentlashtirdi. Shu bilan birga televidenie kashfiyotchilari qatorida Amerika Qo'shma Shtatlari olimi F.Farunsuort, inglialik K.Svinton va L.Bernlar ham tilga olinadi.

---

<sup>9</sup> SHomaqsudov. A. Televidenie bizning do'stimiz. -Toshkent: Fan, 1991. – B. 17.

1931-yili Parijda birinchi marta tasvimi masofaga uzatish amalga oshirildi. Bu voqea milliy konservatoriya va oliy elektrotexnika o'quv yurtida bo'lib o'tdi. 1932-yili Fransiyada tajribaviy telestudiya ochildi. 1935-yil esa Eyfel minorasidan muntazam ko'rsatuvlar uzatila boshlandi. 1933-yili P.V.Shmakov va P.V.Timofeyev yangi uzatuvchi trubka yaratdilar. Sezuvchanligi jihatidan ikonoskopdan ustun turganligi bois u „Superikonoskop" nomini oldi.

1934-yil 15-noyabrda mehanik televideniyaning muntazam ko'rsatuvlari boshlandi. Ular efirga yarim kechadan keyin, halal beruvchi shovqinlar kam bo'lgan paytda namoyish etilar edi. Bu davr televizorlari 6 x 9 sm ekranli bo'lib, barcha zarar detallari va uskunalari sobiq Rossiyada ishlab chiqarilgan. 1925-yildan Yaponiyaning „En-Eych-Key" axborot uzatuvchi uskunalari ishlab chiqaruvchi korporatsiyasi muntazam radio eshittirishlar olib borishga kirishdi. 30-yillarning o'rtalarida u yerda tajribaviy teleko'rsatuvlar yo'lga qo'yildi. 1935 - yili Berlindagi imoratlarning birida televizor o'rnatilib, xoxlovchilar Teleko'rsatuvlarni ko'rishlari mumkin bo'lgan. 1936 - yilning yanvaridan boshlab esa Berlin televideniesi muntazam ish boshladi. Shu yilning avgust oyida Olimpiya o'yinlarimng ochilish marosimi olib ko'rsatildi. 1937 - yil may oyida Angliyada studiyadan tashqarida birinchi teleko'rsatuv bo'lib o'tdi<sup>10</sup>.

1935-yili sobiq Sovet Ittifoqi televideniesi tarixida yangi bosqich boshlandi - Leningradda Butunittifoq televidenie ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilindi. Uzatuvchi-qabul qiluvchi apparatlar tehnikasining rivojlanishi mehanik televideniye, elektron televideniye ga almashtirishga olib keldi. 1936 - yil oktabr oyida Moskvaning Shabolovka mavzesidagi taniqli va hozirgacha ishlab kelayotgan 150 metrli teleminoraning qurilishi boshlandi. Shu yilning noyabrida esa Angliya radio eshittirish korporatsiyasi Bi-Bi-Si o'zining muntazam televizion ko'rsatuvlarini boshladi.

1938-yil mart oyida Moskvada ommaviy foydalanish joylarida 100 ta televizorlar o'rnatildi. Shu yili Leningraddagi Kozinskiy nomli zavodda 200 ta "TK-1" ommaviy televizori va 200 ta arzonlashtirilgan "TI-1" shaxsiy

---

<sup>10</sup> O'taev. O'. Televidenie-davr ko'zgusi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 9.

televizorlari ishlab chiqarildi. 1939-yil 10-martda Shabolovkadagi teleminora ishga tushirilgach, Moskvada elektron televideniening muntazam ko'rsatuvlari boshlandi. Televizorlarni ishlab chiqarish va texnik jihattan takomillashtirish davom etdi. 1940-yilda "17 TN-1" va "17 TN-Z" rusumli televizorlar ishlab chiqarila boshlandi. Ularda ekran kattaligi diagonal bo'yicha 18 sm ga etgan edi. O'sha yiliyoq Amerkada Prezidentlikka nomzod Franklin Delano Ruzveltning saylov oldi nutuqlaridan iborat telereportaj olib berildi.

Ikkinchi jahon urushi davrida deyarli barcha davlatlarda televidenie rivojlanishi to'xtab qoldi. 1946 - yili Amerika Qo'shma Shtatlarida 6 ta telestansiya ish olib bordi. Shu yili iyun oyida Angilradagi Bi-Bi-Si korporasiyasi o'z faoliyatini qayta tikladi. 1945-yili Moskvada ko'rsatuvlar yana davom etdi. 1948 – yilgacha 4 davlat: Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya va Fransiyada televidenie mavjud edi.

1949-yili Rossiyada birinchi televizion stansiyaning tashkil qilinishi televedeniyaning texnik tarixida katta qadam bo'ldi. Shu yilning o'zida ko'rsatuvlar 625 satrda olib borila boshlandi, bu jiddiy yutuq bo'lib, tasvir sifatini oshirishga imkon berdi. Shu yili Itifoqda arzon KVN-49 (qisqartma nomi ixtirochilari familiyalarining bosh harflaridan olingan: Kenigson, Varshavskiy, Nikolaevskiy rusumli televizoirni ommaviy ravishda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1950-yillar Rossiyaning yirik shaharlarida telemarkaz va uzatuvchi stansiyalar qurish davri bo'ldi. 1960-yilga kelib 84 ta telemarkaz va uzatuvchi stansiyalar ko'rsatuvlar olib borilar edi<sup>11</sup>.

Bizni televedeniening texnik rivojidan ko'ra uning ommaviy-axborot vositasi sifatida maydonga chiqishi ko'proq qiziqtirar ekan, bu masalada eng ishonchli ko'rsatkich - aholidagi televizorlar miqdoridir. 1950 yili ular soni 4000 ta edi. 1960 yilda sobiq Sovet Ittifoqida teletomoshabinlar soni taxminan bir millionga etdi. Shundan xulosa qilish mumkunki bu davrga kelib, televedenie sobiq Ittifoqda ommaviy-axborot vositasiga aylangan, ya'ni jamiyatning ijtimoiy inistituti mavqeini egallagan edi.

---

<sup>11</sup> Abduazizova. N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari., -Toshkent: Akademiya, 2003. – B. 16.

1950-yili G'ermaniya Federativ Respublikasida televedenie tashkil qilindi. O'sha vaqtdayoq hozirgi yetakchi kompaniyalarga (bu nom "Ijtimoiy huquqiy radiotelestansiyalar hamdo'stligi" degan ma'noni bildiradi) asos solindi. 1950 - yili Fransiyadan Angliyaga havo mavjlari orqali birinchi teleko'rsatuv uzatildi. 1953 - yilning boshida Yaponiyadagi En-Eych-Key radiotelevizion kompaniyasi muntazam ko'rsatuvlar olib bora boshladi. Shu yilning avgustida En-Ti-Vi Yaponiya tijorat kompaniyasi (Nipon Televijin, ya'ni Yaponiya televizion korporatsiyasi) birinchi marotaba efirga chiqdi.

1954 - yildan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ko'rsatuvlar ayirboshlash yo'lga qo'yildi. 1959 - yili Amerika Qo'shma Shtatlaridan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga 8 ta trans atlantik kabel orqali birinchi teleko'rsatuv uzatildi. Umuman, 1950 - yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida o'sish sur'ati nihoyatda yuksakligi bilan ajralib turadi. 1954-yili bu erda 5000 rangli televizor mavjud bo'lsa, 1960-yilga kelib, ularning soni 425000 ga yetdi. 1960-yilda turli mamlakatlarda 53.7 million televizor mavjud edi. 1962 - yilda ular 100 million donani tashkil qildi<sup>12</sup>.

1951- yilda G'arb davlatlarida televidnie kinoni chetga surib qo'ydi. 50-yillar o'rtalarida Amerika Qo'shma Shtatlari kinokompaniyalari kinosanoatga qaraganda televidenie uchun 10 barobar ko'p filmlar suratga olishdi. 1954-yili televidenie uchun olingan Xollivud kinokompaniyalarining filmlari u yaratgan umumiy maxsulotning 80 foizini tashkil etdi. Rangli televidenie asoschilari A.M.Polumordvinov, A.O.Adamyana, L.Berd, YU.S.Volkov va boshqalardir. Sobiq Ittifoqda rangli televideniening muntazam ko'rsatuvlari 1967-yildan boshlandi. Sun'iy yo'ldosh orqali dastlabki ko'rsatuv esa 1965 - yildan amalga oshirildi. Televideniedan farqli o'laroq uning salafi bo'lgan radio sobiq Ittifoqda ommaviy axborot vositasi sifatida ancha oldin, 20-30-yillarda shakllandi. Toshkent radioeshittirish stantsiyasi o'zining muntazam faoliyatini 1927-yil 11-fevraldan boshladi. 1928-29-yillarda respublikada 10000 ta radiopriyomnik bor edi 1927-yilning oktyabr oyidan etiboran Moskvadan eshittirishlar muntazam

---

<sup>12</sup> Karimov. A. O'zbekistonda televidenie. - Toshkent: Fan, 1964. – B. 24.

olib boriladigan bo'ldi. 1931-yil sentyabrda Toshkentda yangi radiostasiya ishga tushdi.

Shu yili radio orqali rus, o'zbek, qozoq, tojik, va qirg'iz tillarida radiogazeta uzatildi. Yil davomida xammasi bo'lib 1152 ta radio gazeta chiqdi.

## **1.2. O'zbekistonda televideniening shakllanishi va uning rivojlanish yo'nalishlari**

Inson olamni o'zgartirish jarayonida ajoyib mo'jizalar yaratdiki, uning oldida o'zi ham lol qoladi. Olamning etti mo'jizasi deb tan olingan Misr ehromlari, Babil minorasi, Artemida ibodatxonasi, Zevs haykali, Galikarnasdagi Mavsol maqbarasi, Gelios haykali, Nil daryosining Foros orolidaga mayoq - bular inson aql-zakovatining naqadar ulug'vorligidan dalolatdir. Lekin Prometey tomonidan olovning kashf etilishi, kitobning yuzaga kelishi, kosmosning tadqiq qilinishi hayratomuz darajada insoniyat ravnaqida katta hodisa sifatida etti mo'jizadan qolishmaydi. Qadim zamonlarda odamlar uchar gilamlar, oynai jahon shaklida orzu qilgan samolyot va televidenie XX asrda real voqelikka aylandi. Bugungi kunda televidenie odamlarga ma'naviyat va ma'rifat tarqatish, tarbiya berish, axborot uzatish manbaiga aylandi<sup>13</sup>.

Xo'sh, «televidenie» so'zi qanday ma'noni anglatadi? Televidenie yunoncha «tele» - uzoq, «videnie»-ko'rish so'zlaridan olingan bo'lib, uzoqlikdagi, katta masofadagi harakatni ko'rsatish va ko'rish ma'nosini anglatadi. Shuni g'urur bilan ta'kidlash joizki, O'zbekiston - televidenie vatani. 1928 yilda Toshkentlik Hamzaxon va Yusufxon aka Mirzamuhamedovlarning Balandmasjit mahallasidagi xonadonida ixtirochilar B.P.Grabovskiy va I.F. Belyanskiylar elektr nur yordamida harakat qilayotgan tasvirni bir joydan uzatadigan va qabul qiladigan apparat -«Telefot» yaratib, uni muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazdilar.

O'zbekistonda ilk televizion ko'rsatuvlarni efirga berish rasmiy ravishda 1956 yil 5 noyabrda amalga oshirildi. Shu yili «Toshkent televidenie studiyasi» tashkil etildi. Ijodiy ishlar bo'yicha ilk direktor Mirsolih Mirag'zamov, ilk texnik direktor Marziya Abdullaeva, rejissyor Bobo Xo'jaev, operator Polat Rasulov,

---

<sup>13</sup> SHomaqsudov. A. Televidenie bizning do'stimiz. -Toshkent: Fan, 1991. – B. 17.

birinchi diktorlar Iqbol Olimjonova, Yunona Stolyarova, Ra'no Madrahimovalar edilar. Shu o'rinda «birinchi»larning munosib vorislari, marhum ijodkorlar, o'z kasbining fidoyilari Ubay Burhon, G'ani Rasulov, Elbek Musaev, Alp Jamol, To'lqin Alimov, Bobo Xo'jaev, Mirsolih Mirag'zamov, Shavkat Yahyoev, Zokir Yo'ldoshev, Hamidulla Nazirov, Karim Maqsudxo'jaev, Armug'on Muhamedov, Qo'zijon Hakimov, Hasan Yo'ldoshev, Ergash Karimov, Sadir Ziyovuddinov, San'at Ro'zmatov, O'ktam Jobirov, Davron Zunnunov, Abdurahrnon Ahmedov, Viktoriya Raykova, Muzaffar Afzalov, Shavkat Sharipov, Soli Rahimqulov, Hasan Hamroev, Bahodir Muhamedov, Egamberdi Musaev, G'oyib Iskandarov, Eldor Mirsaidov, Shuhrat Qosimov, Samad Po'latov, G'ayrat Shokirov, Erkin Ne'matov, Hoshimjon Mirzaahmedov, Asqar Xoliqov, Abduazim Alimov va boshqalarning nomini chuqur ehtirom bilan tilga olamiz<sup>14</sup>.

Telemarkaz 1958 yili ko'chma telestantsiya (KTS) ga ega bo'lib, o'z faoliyatini Alisher Navoiy nomli Akademik Katta teatridan 8 martga bag'ishlangan tantanali yig'ilishni olib ko'rsatishdan boshlagan. O'tgan asrning 60 yillarida Toshkent Telemarkazining ko'rsatuvlarini tarqatish doirasi kengaydi. 1961 yilda Urganch shahrida, 1964 yilda Nukus shahrida yangi Telemarkazlar qurilib ishga tushirildi. 1962 yildan O'zbekiston televideniyesi ko'p dastur asosida ish boshladi, ya'ni ikkinchi Respublika dasturini ko'rsatish, 1965 yildan esa O'zbekistonda Markaziy televidenie ko'rsatuvlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1962 yilda Telemarkaz Respublika Aloqa vazirligi ixtiyoridan «Televidenie va radioeshittirish Davlat Komiteti» tasarrufiga o'tkazilganligi to'g'risida O'zbekiston Oliy Sovetining qarori chiqdi.

1966 yilda O'zbekiston poytaxtida Hindiston Bosh vaziri va Pokiston Prezidentining uchrashuvi, Hindiston yarim oroliga tinchlik keltirgan tarixiy «Toshkent deklaratsiyasi»ning imzolanishi xalqaro televizion tarmoqlar orqali ilk bor jahon bo'ylab namoyish etildi. Bu shubhasiz, televideniyamiz rivojining yorqin dalilidir. Toshkent Telemarkazining texnikaviy va ijodiy imkoniyatlari 1971 yilda yanada oshdi. Shu yili Telemarkaz rangli tasvirda teleko'rsatuvlar

---

<sup>14</sup> O'taev. O'. Televidenie-davr ko'zgusi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 69.

tayyorlashga otdi. Rangli televidenie paydo bo'lgach, telemarkaz binosini ta'mirlash ishlari boshlanib ketdi. 1978 yilga kelib yangi binodagi Telemarkaz texnika apparatlari xonalaridan biriga rangli televizion dastgoxlar o'rnatildi. 1980 yildan boshlab esa Respublika televizion markazi murakkab rangli televizion dastgohlarga ega bo'ldi.

O'zbekiston televideniesining imkoniyatlari 1980 yilda ishga tushgan yangi Telemarkaz hamda 1985 yilda o'rnatilgan ko'p dasturli radiotelevizion uzatuvchi stantsiya tufayli yanada oshdi. Yangi Teleminoraning balandligi 375 metr bolib, u Toshkent Telemarkazining ko'rsatuvlarini tarqatishni ikki barobarga oshirdi. Natijada, videosignallarning sifati yaxshilanib teleko'rsatuvlar soni ko'paydi. Bu davrga kelib texnik bazani, rivojlantirish uchun, Yaponiyaning jahonga mashhur «Soni» firmasidan televizion texnik vositalar xarid qilindi. Natijada musiqiy, adabiy-dramatik, yoshlik, kino ko'rsatuvlar, kundalik dasturning asosiy qismini egallab, havaskorlik jamoalari hamda yosh xonandalarning «Marhabo, talantlar», «Cashma», «Anor», «Ofarin» televizion tanlovlari o'tkazilishi uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Televidenie orqali taniqli o'zbek adiblarining eng sara asarlarini targ'ib qilishga jiddiy kirishilganligi alohida e'tiborga molik hodisadir.

Xalqimizda shunday bir gap bor: «Oddiy cho'pning ham ikkita uchi bo'ladi» XX asr mo'jizasi bo'lmish televidenieda ham ikki xil xislat mavjud: biri ijobiy, ikkinchisi salbiy. Frantsuz telepublitsisti Andre Dilifon, Televidenie madaniyat tarqatishning buyuk qurolidir deb baholagan bo'lsa, yapon jamoat arbobi Sonki Oya, Televideniening taraqqiyoti yaponlarda millionlab ahmoqlarni etishtirib berdi, - deb ta'kidlagan edi. Xalqimiz qanday quvonchu tashvishlar, shodligu anduxlar bilan yashagan bo'lsa, O'zbekiston televideniesi ham shunday umr kechirdi. Faqat xalqimizning milliy qadriyatlari, asl san'ati va adabiyotiga murojaat qilingandagina, oynai jahonimiz yuzi yal-yal yashnadi. Atoqli adiblarimizning buyuk bobo-kalonlarimiz haqidagi asarlari asosida yaratilgan o'nlab ko'p qismli videofil'mlar, Mirtemir, Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi ardoqli shogirdlarimiz ijodiy kechalar to'g'risida ko'rsatuvlar

namoyish etilganda, bebaho fol'klor merosimiz, shuningdek, el sevgan san'atkorlar: Xojixon Boltaev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Orifxon Xotamov, Botir Zokirov, Otajon Xudoyshukurov, Tavakkal Qodirov, Muhammadjon Karimov, Olmaxon Hayitova, Tojiddin Murodov, Munojot Yo'lchieva, O'lmas Saidjonov, Nuriddin Hamroqulov, Kamoliddin Rahimov, Ortiq Otajonov, G'ulomjon Yoqubov ekranda kuylaganda, Shukur Burhon Jaloliddin, Ulug'bekni o'ynaganda, Qodir baxshi Alpomishdan so'ylaganda o'zligini anglagandek bo'ldi.

Tadqiqotchilarning fikricha, televidenie yosh, shu bilan birga ulkan istiqbolga ega san'at turidir. Televideniening rivoji, san'atning boshqa turlari taraqqiyoti uchun ko'mak berishi mumkin, lekin hech qachon salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, kino va teatr tomoshalarini televidenie orqali olib ko'rsatish, ommada san'atning o'sha turlariga bo'lgan qiziqishni bir necha chandon orttirgan. Kinoni ekranda, teatrni sahnada, ya'ni «asl holda» ko'rish ehtiyojini tug'dirganki, bu ham san'at turi televideniening o'ziga xos jihatlaridan biridir<sup>15</sup>.

Televidenie, o'z tabiatiga ko'ra o'nlab xususiyatlarni jamlagan. Uning birinchi xususiyati - sintetikligidir. Bu xususiyat telemahsulotlar xarakteridan kelib chiqadi. Sintetiklik san'atdan texnika yordamida montaj va tasvir, musiqa va teatr hamda kino usullaridan keng foydalana olishida namoyon bo'ladi. Ikkinchi xususiyati - voqeani aynan teletomoshabinning ko'z o'ngida sodir etishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyat tomoshabin qalbiga taassurotdan tashqari, dramatik ruh bag'ishlaydi. Voqea bilan tomoshabin o'rtasida vosita «yo'qolib», olam bilan odam yuzma-yuz bo'lib qoladi. Uchinchi xususiyati - uning hamma joyda hoziru nozirliги. Hozirgi paytda televidenie kundalik turmushimizga shu qadar singib ketdiki, biz biror kunimizni usiz tasavvur qilolmaymiz. Chunki hamma ham har kuni teatr yoki kontsertga, kino tomosha qilish uchun kinoteatr va klubga bora olmaydi. Lekin televizor orqali barcha tomoshalarni ko'ra olamiz. Chunki u kirib bormagan xonadon deyarli qolmadi.

---

<sup>15</sup> Hayot ko'zguchilari // Kino, 1999. №4, - B. 42.

Televidenie va adabiyot azaldan ajralmasdir. Buni biz «kichik ekran»ning katta imkoniyatlari to'la ochilgan bir paytda alohida ta'kidlashimiz mumkin. Goho televizion ekran ajoyib, qiziqarli kitoblarni qashshoqlantiradi, deya xavotirda bo'ladigan kishilar ham yo'q emas. Lekin bu butunlay asossiz deb o'ylaymiz. Chunki ekran orqali asardagi qahramonlar obrazini gavdalantirayotgan aktyor o'z imkoniyatlarini to'la ishga solib, kitob sahifalaridagi yashirin «sir»ni tomoshabin qalbiga olib kiradiki, bu televideniening o'ziga xos imkoniyatlaridan yana bir dalolatdir.

Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqlardan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Ko'plab atoqli kishilar televidenie boshqa an'anaviy san'atlarni qisib chiqarmaydi, aksincha, ularning umrini uzaytiradi, degan fikrdalar. «Televidenie kundalik xayotimizga singib ketdi, - deydi taniqli akter Nikolai Annenkov - televidenie juda keng va rang-barangdir, u inson faoliyatining barcha sohalarini siyosatdan tortib san'atgacha, hammasini qamrab olmoqda. To'g'ri, televideni hamma o'z uyida ayrim-ayrim joylarda ko'radi. Ammo, aytaylik, televidenieda biror ko'p seriyali fil'm berildi yoki biror dongdor kishining yorqin chiqishi bo'ldi, yoki siyosiy ko'rsatuv berildi. Agar bular qiziqarli bo'lsa ko'pchilik uch m, hatto notanish odamlar uchun ham umumiy suhbat mavzui yuzaga keladi. Shu tariqa televidenie juda ko'p odamlarni yaqinlashtira oladi»<sup>16</sup>.

Teledramaturgiya - televizion asarning birinchi asosi bo'lib, adabiyot va san'atning alohida mustaqil turidir. Teledramaturgiyaning kompozitsion qurilishi, bir tomondan dramaturgiya va kino qonun-qoidalariga, ikkinchi tomondan, televidenie spetsifikasiga buysunadi. Teleko'rsatuvlar orasida eng ommabopi Televizion teatr hisoblangan. Uni bir yo'la millionlab tomoshabin ko'ra olgan. Televizion postanovkalarni muntazarn ko'rib borish orqali tomoshabinlarda did, estetik dunyoqarash shakllanadi. Bu jihatdan uning tarrbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Bundan 30-40 yil ilgari yozuvchilar asarlarini televidenie orqali

---

<sup>16</sup> Kosheleva. V. Ko'ha tarix shodasidagi dur // Kino, 1996. №6, - B. 41.

namoyish qilishdan cho'chishar edi. Televideniya adabiyot va sarfat bayramlari, yozuvchi va shoirlarning yubileylari, an'anaviy Navoiy she'riyati kunlariga atab maxsus ko'rsatuvlar tayyorlandi. Bular yoshlarni badiiy adabiyot namunalaridan bahramand bolishiga, go'zallikni tushunishga beminnat xizmat qilmoqda. Televidenie yoshlarda estetik didni rivojlantirish, go'zallikni his etishni tarbiyalash sohasida g'oyat katta faoliyat maydoniga ega. Respublikamizda minglab klublar, kinoteatrlar, madaniyat saroylari, badiiy havaskorlik jamoalari bor. Klassiklar va hozirgi zamon yozuvchilarining asarlari katta tirajlarda nashr qilinmoqda. Ammo har bir yigit va qizni badiiy ijod bilan qanday qilib bahramand etish masalasi hali kun tartibidagi jiddiy masalalardan biri bo'lib turibdi.

Ayrim yoshlarimizning estetik didi, afsuski, uncha yuqori emas. Ba'zan yoshlar individualistik manfaatlarni ko'zlovchi chet el modasi ketidan quvadilar. Bunday «moda» muxlislari jamoatchilik ta'sirida uning qalbaki, behayo, bema'ni ekanini ertami-kechmi tushunib olishlari turgan gap. Ammo boy berilgan narsalarning o'rnini to'ldirish oson ish emas. Zero, kishida chinakam badiiy did va ehtiyojlar uning bolalik chog'idayoq vujudga kela boshlaydi va umr bo'yi to'lib, boyib boradi.

## **II BOB. XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asrning boshlarida O'zbekistonda televideniye taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari**

### **2.1. 1970-1980 yillarda O'zbekiston televideniyesining ko'rsatuvlar tarkibi.**

1970-1980-yillarda O'zbekiston televideniya-sida bir qator yangi ko'rsatuvlar yaratilgan. Adabiy-dramatik ko'rsatuvlar Bosh redaksiyasi tomonidan tayyorlangan «Oltin sahifalar» deb nomlangan ko'rsatuvning ilk soni Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiga bag'ishlandi. O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulom ijodiga bag'ishlangan «G'afur G'ulom chinori» degan ko'rsatuv ham teletomoshabinlarning esidan chiqmaydi. Nikolay Tixonov, Aleksey Surkov, Sobit Muqonov, Berdi Kerboboev, Rasul Hamzatov, Sil'va Kaputikyan, Vadim Kojevnikov, Anatoliy Sofronov, Rimma Kazakova, Yuriy Ritxey va boshqalarning o'zbek shoiri G'afur G'ulom ijodi haqidagi samimiy so'zlari zo'r hayajon bilan tinglangan edi<sup>17</sup>.

G'afur G'ulom hayoti va ijodiga bag'ishlangan «Yozuvchilar - yozuvchilar haqida» ko'rsatuvida Ch.Aytmatov, R.Hamzatov, A.Sofronov, N.Gribachev, shoir va tarjimonlardan R.Kazakova, S.Severtsev shoir haqidagi qalb xotiralarini so'zlab berishdi. Shuningdek, ko'rsatuvda G'afur G'ulomning 1950-1960 yillarda o'qigan sherlari, mehnatkashlar bilan uchrashuvlarni hikoya qiluvchi noyob kadrlardan keng foydalanildi.

Atoqli adibimiz Oybek tug'ilgan kunning 80 yilligini jamoatchilik katta bayram qildi. Televideniya Oybek asarlaridan namunalar, qardosh adiblarning Oybek ijodi haqidagi xotiralarini berib borildi. Oybekning safdoshlari va shogirdlari ishtirokida xotira kechasi uyushtirildi. Televideniya yozuvchi va shoirlarning respublika ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlarini uyushtirish an'anasi tarkib topdi. Ishlab chiqarish korxonalarida, oliy o'quv yurtlarida Uyg'un, A.Muxtor, Shuhrat, O.Yoqubov, A.Oripov, E.Vohidov, O. Matchon, N. Narzullaev, J.Jabborov, H.Xudoyberdieva, H.Oxunova kabi o'nlab ijodkorlar bilan ijodiy uchrashuvlar bo'lib o'tdi. «Bir asar tarixi» telejurnali ijtimoiy hayotimizda voqea bo'lgan bir asar tarixiga bag'ishlanmoqda.

---

<sup>17</sup> Karimov A. O'zbekistonda televideniye. - Toshkent: Fan, 1964. – B. 25.

Boshlovchi - talantli shoir, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti laureati A.Oripov har bir ko'rsatuvda tomoshabinga nimadir «yuqtirish»ga intiladi. Ayniqsa, H.H.Niyoziyning «Boy ila xizmatchi», A.Qodiriyning «O'tkan kunlar», H.Olimjonning «O'rik gullaganda», G'.G'ulomning «Sen etim emassan», M.Shayxzodaning «Toshkentnoma», Oybekning «Qutlug' qon» va «Navoiy», R.Fayziyning «Hazrati inson», O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasini», Mirmuhsinning «Umid», S.Ahmadniig «Ufq» asarlariga bag'ishlangan ko'rsatuvlar tomoshabinlarga ma'qul va manzur bo'ldi.

«Adabiy al'manax» - adabiy hayotimizdagi yangiliklar bilan tanishtirib boradi. Shuningdek, «Yangi sherlar», «Yangi asar - yangi qahramon», «Yangi tarjimalar», «Jahon adabiyoti xazinasidan», «Qardoshlarimiz ijodidan», «Madaniy merosimizdan», «Yozuvchi pochta», «Savol bering, jazob beramiz», «Adabiy al'manax kalendari» kabi sahifalarda rang-barang materiallar berib borildi. Zero, adabiyotimizda o'zining yaxshi jihatlari bilan «yilt» etib kelgan har bir yangi asar «Adabiy al'manax» va «Bo'ston» telejurnallari sahifalaridan munosib o'rin oldi<sup>18</sup>.

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov ijodiga bag'ishlangan «Iste'tod jilolari» ko'rsatuv ham original shakli va mazmuni bilan teletomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ko'rsatuvda ishtirok etgan Davlat mukofoti laureatlari Dovud Qo'g'ultinov, Mo'min Qanoat, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Matyoqub Qo'shjonov va boshqalar Abdulla Oripov ijodining o'ziga xos xususiyatlari xususida to'lqinlanib so'zlab berishdi. Mazkur ko'rsatuv Markaziy televidenie orqali ham namoyish etildi.

O'zbek san'atkorlari, xususan, adib va shoirlarning paxtakorlar huzurida bo'lishi, ular sha'niga aytilgan iliq qalb so'zlarining naqadar ahamiyatli va rohat baxsh ekanligini televidenie xodimlari qalban his qilib, qator ko'rsatuvlar tayyorlashdi. Televidenie tashabbusi bilan ko'pgina ijodkorlarimiz paxta dalalarida bo'ldilar, o'sha joylardan ko'rsatuvlar uyushtirishdi.

Respublikamiz yosh ijodkorlari o'z asarlarida davrimizning qizg'in

---

<sup>18</sup> Ma'naviyatimizning hayotbaxsh qudrati. - Toshkent: SHarq, 1999. – B. 56.

nafasini, zamondoshlarimizning yorqin obrazlarini badiiy gavdalantirishga, yangi mavzu va muammolarni badiiy tadqiq etishga, adabiyotimiz arfanalarini dadil rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. 1976 yil (O'zbekiston televideniesining ijodiy jamoasi yoshlar ommasiga atalgan yangi ko'rsatuv - «Ilhom» ijodkor yoshlar klubini tashkil etildi. Avval ham «Yoshlar ijodi» ko'rsatuvi mavjud edi. Unda ishtirok etish uchun respublikamizning turli viloyatlaridan ijodkor yoshlar taklif qilinar edi. Asosan shoir va yozuvchilar ishtirok etishar edi.

«Ilhom»ning bevosita davomi bo'lgan «Umid» teleklubi ham yosh ijodkorlarning chinakam minbariga aylandi. Ular shu minbardan turib qilgan ishlari haqida hisobot bermoqdalar, yangi asarlaridan namunalar o'qib, o'z mulohazalari va rejalarini aytmoqdalar, «Umid» respublikamiz ijodkorlari sulolasini tarbiyalamoqda. Unda yosh shoirlar, yozuvchilar, baxshilar, rassomlar, aktyorlar, arxitektorlar faol qatnashmoqda. «Umid» ko'rsatuvlarida respublikamizning yosh ijodkorlari o'z ijodlari bilan Vatanimizga otashin" muhabbatlarini namoyish qilmoqdalar<sup>19</sup>.

Xullas, «Umid» yosh ijodkorlar bilan tomoshabinlarning aloqasini kengaytirish, yosh talantlarning o'sishiga butun choralar bilan yordam berish ustida ijodiy izlanmoqda. O'zbekiston televideniesida «Yoshlar ijodi», «Teatr uchrashuvlari», «Aktyorlar va rollar», «She'riyat muxlislariga», «Yozuvchi va zamon», «Ko'rgazma zallari bo'ylab», «Yangi tarjimalar», «Bir aktyor teatri», «Televizion novellalar teatri» rubrikalari orqali keng targ'ib qilinmoqda.

«Teatr uchrashuvlari» turkumidagi ko'rsatuvlarda Murod Rajabov, Malika Ibrohimova, Noila Toshkenboeva, Turdibek Sodiqov, Hamza teatrining Erkin Komilov, Hojiakbar Nurmatov, Dilbar Ikromova, Yodgor Samiev, Tesha Mo'minov kabi iste'dodli yoshlari ijodiga bag'ishlandi. «Benefis molodosti» ko'rsatuvida esa M.Gor'kiy teatrining A.Kuzin, L.Xo'jaev, A.Dubrovin, L.Gavrilyuk, L.Mixaylova kabi talantli yoshlari ishtirok etdilar, «Teatr uchrashuvlari» degan ko'rsatuvning bir necha sonlari respublika teatrlarining yosh ijodkorlari faoliyatiga bag'ishlandi. Rassomlardan Bahodir Jalolov, Temur

---

<sup>19</sup> SHermuhammedov S., Ochildiev A. Madaniyat va sivilizatsiya. - Quvasoy, 1999. –B. 40.

Sa'dullaev, Galina Li, Irina Lilenya, haykaltaroshlar Ilhom Jabborov, Damir Ro'ziboevlar ijodi «Ko'rgazma zallari bo'ylab» ko'rsatuvlarida maroqli hikoya qilindi.

Shuningdek, «O'zbekiston xalq amaliy sarfati», «Toshkentda ijodiy uchrashuvlar», «O'zbekiston rassomlar uyushmasi Ko'rgazma zallarida», «(O'zbekiston rassomlarining ijodiy portretlari)» turkumi, «Yaponiya san'ati», «Hindiston san'ati», «Gollandiya san'ati» kabi ko'rsatuvlar xalqimizning estetik va madaniy saviyasini yanada oshirishga yordam berdi.

Tasviriy san'at targ'ibotiga oid ko'rsatuvlar mavzu rang-barangligi, badiiy yuksakligi, materiallarni yangi shaklda tomoshabinga etkazish yo'lidagi izlanishlar bilan ajralib turadi. Ular teletomoshabinlarni ko'rgazmalar orqali beixtiyor rassom ijodxonasiga etaklaydi. Ko'pgina ko'rsatuvlar teletomoshabinlarni tasviriy san'atning boy merosi bilan tanishtirib, rassomlarning murakkab ruhiy dunyosiga olib kiradi. Bu jihatdan O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboev ijodi haqidagi ko'rsatuvni alohida ta'kidlash lozim. Yarim soatlik ko'rsatuvda ulkan ijodkorning hayoti va ijodi haqida keng tasavvur berish qiyin vazifa. Ammo ko'rsatuv ijodkorlari bu vazifani juda yaxshi uddaladi: mana, ekranda O'rol Tansiqboev portreti. Musiqa yangraydi. Boshlovchining hayajonli ovozi ham yurtimiz hayoti va ijodi haqida hikoya qiladi<sup>20</sup>.

Ekranda O'rol Tansiqboevning «Issiqko'lda oqshom» kartinasi. Bu rassomning lirik va shu bilan bir vaqtda epik asaridir. Unda o'ziga xos o'ychanlik, sokinlik mavjud. Operatorning yordami orqali teletomoshabinlar muzeydagi ajoyib ijod namunalari bahramand bo'ladilar: ona diyorumiz tabiati naqadar go'zal. Birin-ketin ekranda rassomning «Tog'dagi yo'l», «Tog' qishlog'i», «Oqshom», «Sirdaryo», «Ona diyor», «Mening qo'shig'im», «Xo'jakent bag'rida Chirchiq daryosi» kabi polotnolari namoyon bo'ladi.

Mana, rassomning Bryusseldagi Xalqaro ko'rgazmada kumush medalga sazovor bo'lgan «Qayroqqum GESida tong» kartinasi. Cho'ldagi ulkan inshootning panoramasi. Urol Tansiqboev o'zining bu asarida ona diyor tabiatini

---

<sup>20</sup> SHomaqsudov. A. Televidenie bizning do'stimiz. -Toshkent: Fan, 1991. – B. 78.

o'zgartirayotgan zamondoshlarimiz mehnat jasoratini to'la namoyon qila olgan. Ko'rsatuv rassomning turli yillarda yaratgan rasm va etyudlari seriyasi namoyishi bilan yakunlanadi.

O'zbekiston televideniyesi hujjatli va badiiy kino vositalari bilan ham xalqimizni estetik tarbiyalash vazifasini amalga oshirmoqda. Kichkintoylar uchun «Mul'ti panorama», kino san'ati shaydolari uchun «Eksprompt uchrashuv», «Kinoredaksiya pochtasidan», «Kino ustalari», «Ertaga prem'era» kabi dasturlar taqdim etildi.

Teletomoshabinlarning ko'plab xatlarini hisobga olgan holda «Sirk, Sirk, Sirk» dasturi efirga berildi. Bu dam olish dasturida milliy sirk sarfati vakillari xalqimizga tanishtiriladi. O'zbekiston televideniyesi kino ko'rsatuvlari redaksiyasida quyidagi turkum ko'rsatuvlar berilib turildi. «Kino olamida» degan ko'rsatuvda kino yangiliklari, artistlar haqida, rejissyorlar faoliyati, kinofestivallar kalendariga aloqador voqealar haqida so'z borar edi. «Kino ustalari» degan ko'rsatuvda esa ulkan kino san'atkorlarining ijodi va faoliyati haqida hikoya qilinardi. Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jaev, Abbas Bakirov, Asad Ismatov ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar o'zbek telepublitsistikasi tarixidan munosib o'rin oldi<sup>21</sup>.

«Kino ustalari» turkumidan berilgan Xalq artisti Komil Yormatovning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuvni alohida ta'kidlash joiz: ko'rsatuv davomida ko'z o'ngimizda kino san'atimizning yirik namoyandalaridan biri Komil Yormatov o'z hayoti, ijodiy faoliyati, o'z san'atlari bilan xalqimiz qalbidan munosib o'rin olgan Abror Hidoyatov, Asad Ismatov, Razzoq Hamroev, Abbas Bakirov, Rahim Pirmuhamedov kabi talantli san'atkorlar to'g'risidagi xotiralarini hikoya qilib berdi. Bu xotiralar uning shaxsiy arxivida saqlanib qolgan magnit lentasidan yozib olingan bo'lib, ko'rsatuvni tayyorlashda noyob tarixiy kinokadrlardan ham o'rinli foydalanilgan edi. Shunday qilib, rejissyor xotiralari orqali o'sha o'lis 1920-1950-yillar jonlantirilib, xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l hikoya qilib berildi.

---

<sup>21</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. - Toshkent: SHarq, 2000. - B. 286.

Rejissyorga ulkan shuhrat keltirgan «Alisher Navoiy» fil'mining yaratilish jarayonlari, «Abu Ali ibn Sino», «Odamlar orasida tanho» filmlaridan lavhalar ham zo'r qiziqish bilan tomosha qilindi. Dunyo mamlakatlari va xalqlari, ularning urf-odatlari, amaliy san'ati, tarixi, geografik kengliklari, tabiat ajoyibotlari, qo'riq-xonalar, hayvonot olami haqida «Olamga sayohat» ko'rsatuvlarida hikoya qilingan. «Evrika» televizion al'manaxida fan va texnika yangiliklari, tabiat ajoyibotlari, fan sohasidagi buyuk kashfiyotlar haqida hikoya qilingan. Ko'rsatuvlarda turli soha mutaxassislari, O'zbekiston Fanlar akademiyasining geologiya va geofizika instituti, tuproqshunoslik, seysmologiya, meteorologiya, astronomiya, qo'lyozmalar institutlarining olimlari faol qatnashganlar.

1980 yildan beri «Mul'tipanorama» ko'rsatuvlarida mul'tfil'mlar asosida ertaklar, badiiy, fantastik asarlar va uning avtorlari haqida hikoya qilingan. Ularda dunyo va mamlakatimiz multiplikatorlari ijodi bilan ham keng tanishtirilgan. Yangi-yangi mul'tfil'mlar namoyish etilgan. «Kinoredaksiyasi pochtasidan» ko'rsatuvida miniportretlar, fil'm ijodkorlari haqida suhbatlar, qiziqarli uchrashuvlar xatlar asosida tuzilgan. «Eksprompt uchrashuv»larda kino ijodkorlari bilan tomoshabin va muxlislarning uchrashuvi kutilmagan. savol va javoblar asosida tayyorlangan. Jonli suhbat va mazkur qaxramon ishtirokida yaratilgan fil'mlardan lavhalar ko'rsatilgan<sup>22</sup>.

Xalqimizni estetik tarbiyalashda qo'shiq san'ati beqiyos imkoniyatlarga ega. Qo'shiq san'ati teletarg'ibotning ham qonu ham jonidir. Televidenie qo'shiqsiz yasholmaydi. Markaziy va mahalliy televideniening har yilgi «80 yillarning qo'shiqlari» degan ko'rsatuvlarini tomosha qilishga odatlanib qolingan edi. Qo'shiq - bu zamondoshlarimizning qalb quvonchlari, rangin tuyg'ulari ifodasi, Vatanga, mehnatga mehr-muhabbat izhori. «Men uchun qo'shiq - bu qahramonlarimga bo'lgan boqiy muhabbatim izhoridir, - degan edi mashhur kompozitor Aleksandra Paxmutova. - ishonamanki, har bir mehnatkash inson xaqida qo'shiq yozish mumkin».

O'zbekiston televideniyesining «Nazm va navo» turkum ko'rsatuvlarida

---

<sup>22</sup> O'taev. O'. Televidenie-davr ko'zgusi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 69.

Navoiy, Bobur, Masbrab, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy kabi klassik she'riyatimiz allomalari asarlari asosidagi qo'shiqlar yangradi. «Maqom» va «Shash-maqom» usulida aytiladigan qo'shiqlar xalq qalbining ifodasi bo'ldi. O'zbekiston televidenie va radioeshitirish Davlat komitetining «Maqom» ansambli, «Dutorchi qizlar» ansambli artistlarining har galgi chiqishlari tomoshabinlarga betakror zavq-shavq hadya etgan.

Televideniya qo'shiq san'ati targ'iboti rang-barang shakllarda olib borilar edi. «Yalla», «Navo» estrada ansambllari kontsertlari, portret fil'm kontsertlarda teatrlashtirilgan shakl, klassik musiqa haqidagi ko'rsatuvlarda esa suhbat shakli tanlangan. Masalan, «Nazm va navo»da boshlovchining klassik she'riyat, ijodkor va zamon, «Maqom»da O'zbekiston xalq hofizi Orif Alimahsumovning maqom yo'llari, «Dirijyor hikoya qiladi»da professor Zohid Haqnazarovning musiqa san'ati, «Qo'shig'im, jon qo'shig'im»da kompozitor Shermet Yormatovning bolalarda musiqaga ishtiyoq uyg'otish haqidagi maroqli suhbatlarini hamma sevib eshitgan. Ularning qisqa va lo'nda fikrlari, chuqur his-hayajon bilan sug'orilgan nutq-monologi tomoshabinda emotsional kayfiyat uyg'otgan<sup>23</sup>.

O'zbekiston televideniyesi muntazam ravishda Yangi yil, 8-mart va boshqa bayramlarga «Ogonyok»lar uyushtirib kelgan. «Ogonyok»lar tarkibidan bayram kontserti programmasi keng o'rin olgan. Shuningdek, unda san'atkorlar, ishlab chiqarish ilg'orlari, yozuvchi va shoirlar, olimlar, mehnat faxriylari ishtirok etganlar. Bayram «Ogonyok»lari tomoshabinlar taklifi va so'roviga muvofiq takroriy ko'rsatilar edi. Ayni paytda, ular minglab kishilarning «zangori ekran» qarshisidagi oilaviy dam olishining zamonaviy shakli edi.

Televidenie jurnalistlari yosh avlodni estetik tarbiyalashda ta'sirchan vositalardan foydalangan. Bolalar va o'smirlar uchun ko'rsatuvlar redaksiyasi ijodkorlarining bu sohadagi izlanishlari natijasida «Qo'shig'im, jon qo'shig'im» deb atalgan ko'rsatuvlarning yangi turkumi tashkil qilingan. Bu turkumning maqsadi bolalarda musiqaga muhabbat uyg'otishdan, ularni turli xalqlar musiqa madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishdan iborat.

---

<sup>23</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. - Toshkent: SHarq, 2000. – B. 128.

O'zbekiston televideniesi respublikada havaskorlik san'atini rivojlantirishiga munosib hissa qo'shib kelgan. Televidenie tashabbusi bilan tashkil etilgan «Marhabo, talantlar», «Chashma», «Qizlar davrasi», «Kuylang, yosh xonandalar», «Doira raqsga chorlaydi», «Qo'shiq aytgan etar murodga», «O'zbekiston kuylagay», «Davramizga marhabo», «Debyut» kabi talay ko'rsatuvlar teletomoshabinlar o'rtasida katta qiziqish uyg'otgan, joylarda havaskorlik jamoalarining tarmog'i, miqdori va ta'sir doirasi birmuncha kengaygan. Yangi nomlar, yangi ovoz, yangi soz sohiblari kashf etilgan. «Davramizga marhabo» deb ataluvchi telefestivalda Qoraqalpog'iston va respublika viloyatlarining badiiy havaskorlik jamoalari ishtirok etganlar. Telefestivaldan ko'zlangan asosiy maqsad, viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan eng yaxshi badiiy iste'dod egalarini aniqlash, qatnashchilarning ijro mahoratini kuzatish, yangi talantlarni kashf etish hamda bastakorlarning eng yaxshi asarlarini targ'ib qilish edi.

Bu o'ziga xos san'at bayramiga eng yaxshi badiiy havaskorlik jamoalari jalb qilinar edi. Festival ancha keng, rang-barang va ko'p janrli bo'lib, unda xor, badiiy o'qish, yakka va ommaviy raqslar, estrada nomerlari, an'anaviy xalq janrlari, lapar, baxshilar aytishuvi, maqom yo'llari hamda qardosh xalqlar qo'shiq va kuylari ijro etilgan.

Festival qatnashchilari turli kasb egalari bo'lib, ular orasida paxtakor, cho'pon, quruvchi, vrach, shofyor, talaba, maktab o'qituvchisi va o'quvchisi ham bor edi. Binobarin, o'z iste'dodi bilan teletomoshabinlar ko'ngliga yo'l topgan havaskor yoshlar Samarqand va Andijonda ham, Surxondaryo va Qashqadaryoda ham, Xorazm va Buxoroda ham, Toshkent va Farg'onada ham, Namangan va Sirdaryoda ham borligi respublikamizda havaskorlik san'ati naqadar keng quloqchilik yoyganligini yana bir bor isbot etdi. Ayni paytda, san'at bayrami tusini olgan festival xalq badiiy talantlarining ko'rigi bo'lish bilan birga, ishilarimizni estetik zavqini kamol toptirishga ham beqiyos hissa bo'lib qo'shilgan.

1977 yil «Yozuvchilar - yozuvchilar haqida» nomi bilan turkum ko'rsatuvlar tashkil etildi. Birinchi ko'rsatuv O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya

ijodiga bag'ishlandi. Uni Qabardin-bolqar xalq shoiri Qaysin Quliev olib bordi. So'ng Rasul Gamzatov - G'afur G'ulom, Konstantin Simonov - Abdulla Qahhor, Nikolay Tixonov - Oybek, Chingiz Aytmatov - Mirtemir, Vitaliy Ozerov - Hamid G'ulom, Georgiy Markov - Raxmat Fayziy ijodi haqida hikoya qildi. Ko'rsatuv bir yil davom etdi. Ushbu telemahsulot haqidagi tasavvuringizni boyitish maqsadida atoqli adiblarimizning o'zbek do'stlari haqidagi qalb so'zlaridan namunalar keltirishni lozim topdim: Qaysin Quliev Zulfiya haqida:  
- O'zbekistonda mening sadoqatli, samimiy do'stlarim juda qo'p. Zulfiyaxonim shular orasida alohida o'rin tutadi. Zulfiya ulkan shoira, go'zal inson, jasur ayol. She'riyat ezgulikda dunyoga keladi. Yovuzlikda u hech qachon tug'ilmaydi. Fashizm jahonga shoir bermadi. Yer sharining qaysi joyida fashistlar hukmron bo'lsa, o'sha erda shoirlar bo'lmaydi<sup>24</sup>.

She'riyat hayotning o'ziday qiyinchilik, qayg'u va azoblardan qo'rqmasagina katta she'riyatga aylanishi mumkin. Katta she'riyat haqqoniy tuyg'ulardan, haqiqiy tafakkurdan kelib chiqadi. Zulfiya hayotida ko'p qiyinchiliklar, ko'p azob-uqubatlarni ko'rди. Biroq mardligi va boshqa fazilatlari bilan kishini lol qoldiruvchi bu ayol ijodida tanholik va g'am-alam bosh motiv bo'lib qolmadi. Kishi hayotdan ketadi, lekin uning kishilarga ko'rsatgan samimiyati, talanti, mehnati hamda muhabbati qoladi. U kimni tark etgan bo'lsa, o'sha odam hayotni yanada kuchli e'zozlamog'i, asramog'i va himoya qilmog'i lozim.

Iste'dod qanchalik yuksak bo'lmasin, mehnatsiz u o'chib qoladi. Mehnat va she'riyat Zulfiya uchun teng ahamiyat kasb etadi. «Yurakdan to'g'ri boshqa yurakka o'tadi», deydi shoira. Mana shunday satrlarni yaratish uchun minglab so'zlar orasidan zarurini qidirib topish nihoyatda katta kuch va yurak qo'rini talab etadi. Tabiiylikka intilish, qalbdan aytilgan sher, nutq, oddiylikka katta diqqat, chin insoniylik - Zulfiya ijodining asosiy xususiyatlaridir. Bugun men bu yerdan turib, oppoq Kavkaz cho'qqilari bilan yana sening nomingni tilga olyapman Zulfiya. Chingiz Aytmatov Mirtemir haqida:

---

<sup>24</sup> <http://news.uzreport.com/uzb>.

- Mirtemir deganda, biz qirg'izlarning yuziga yorug' tabassum yuguradi. Ayniqsa, bugun u haqda gapirish men uchun ham og'ir, ham yoqimli. Og'irligi shundaki, uning ovozi biz ortiq eshitmaymiz. Yoqimliliigi shundaki, u bizning qalbimizda doimiy qoladi. U har qanday katta-kichik imkoniyatlardan foydalanib, biz tomonlarda tez-tez bo'lib turar edi. Bizning tilimizni yaxshi bilar, xalqimiz ruhini chuqur anglar edi. Tilimizning umumiyliigi, ruhimiz va qonimiz birligi jihatdan u o'zimizning odam edi. Talas vodiysi bo'ylab birgalikda qilgan safarimizni hayajonsiz eslay olmayman. O'shanda u o'zini juda yomon his qilgan, qon bosimi tufayli yuzaga kelgan bosh og'rig'idan qo'p azob chekkan edi. Biz ko'p narsalar to'g'risida gaplashgan edik. U «Manas»ni yaqindan bilardi. Ana shuning uchun uning o'zbekchaga qilingan tarjimasini o'ziga xos alohida ohangdorlik kasb etgan.

Mana shulardan so'ng Mirtemir to'g'risida hayajonlanmay gapirish mumkinmi? U mashxur «Qirg'iz daftari», «Qoraqalpoq daftari» asarlarini yozdi. Bu kitoblar faqat qirg'iz va qoraqalpoq xalqiga qimmatli bo'lib qolmasdan, turkiy tildagi adabiyotga qiziqqan har qanday yozuvchining ijodiy xazinasiga aylanishi mumkin. Mirtemir chuqur ichki madaniyatli, o'ta kamtarin qalb sohibi edi. Bularning hammasi unga nisbatan qalbimizda katta mehr uyg'otadi.

Ko'p yillardan beri «Otalar so'zi - aqlning ko'zi» teletomoshabinlarning sevimli ko'rsatuvi bo'lib kelgan. Ko'rsatuv yoshlarni axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos vositasiga aylangan. Mualliflar teletomoshabinlar bilan mustahkam aloqa bog'lagan. Ayniqsa, «Otalar so'zi-aqlning ko'zi», «Televizion miniatyuralar teatri», «Bahs» ko'rsatuvlari har bir xonadonga yaxshi tanish. Bu ko'rsatuvlar kishilar taqdiri orqali yaxshilik, vijdon, sevgi, farzand tarbiyasi, orzu-umid kabi umuminsoniy tushunchalarning qaror topishiga, hayotda ba'zan uchrab turadigan tekinxo'rlik, laganbardorlik, razillik, beodoblik kabi salbiy holatlarni fosh etishga qaratilgan.

«Otalar so'zi - aqlning ko'zi» deb nomlangan ko'rsatuv markazida katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, keksa avlodning barcha ibratli an'alarini o'zida tola mujassam etgan Otaxon obrazi turadi. Otaxon faqatgina ko'rsatuvni olib

boruvchigina emas, ayni paytda juda chigal bolgan hayotiy mojarolarni sharhlab, ba'zan esa ularga bevosita aralashuvchi, yaqin maslahatchidir. Shuning uchun ham ko'rsatuvni «Yoshlik» redaksiyasi tayyorlagan. Lekin Otaxon o'zining ulug'vor yoshi, chuqur bilimi bilan kattalar o'rtasida ham obro' qozongan. Yoshlar uning prinsipiialligiga, o'tkir aqliga, keng dunyoqarashiga ham tan berishgan. Ko'rilgan axloqiy masalalar qanchalik muhim ekanligi ko'rsatuv yakunida ayon bo'lgan. Redaksiyaga kelayotgan minglab xatlar fikrimizga asos bo'la oladi<sup>25</sup>.

«Otalar so'zi - aqlning ko'zi»ning ilgarigi sonlarida syujetli tomoshalar qilingan. Keyinchalik esa stsenaristlarning fantaziyasiga tayanib qolinmasdan, syujetli ko'rsatuvlar bevosita xatlar asosida ham yaratilgan. Otaxon (ko'rsatuvni mudom olib boruvchi) safarlarga boradi, bolg'usi ko'rsatuvlarning qahramonlari bilan uchrashadi, ular bilan hamkorlikda muammolar echimini qidiradi, eski yoki yangi bo'lsa ham, zararli odat va tushunchalarga mukkasidan ketganlarga ta'sir etadi.

Ko'rsatuvda muhim axloqiy masalalar zukkolik bilan tahlil qilib borilar edi. Dolzarb mavzudagi, tomoshabin dilidagi gaplar topib aytilgan ushbu dastur hech kimni loqayd qoldirmasligi kerak. Uning ahamiyatini zarracha kamsitmagan holda, ba'zi mulohazalarni aytib o'tmoqchimiz. Birinchidan, «Otalar so'zi - aqlning ko'zi» namoyishida takroriylik sezilgan. So'zimiz quruq bolib qolmasligi uchun, bir misol keltiramiz. Mansabini suiste'mol qilib, boyluk to'plashga ruju qo'ygan prokuror o'g'il va ota o'rtasidagi munosabatlarni hikoya qiluvchi ko'rsatuvni olaylik. Tanlangan mavzu, o'rta qo'yilgan masalalar, aktyorlar ijrosi maqbul. Biroq, mazkur ko'rsatuv ko'p marta takrorlanishi natijasida ta'sir kuchini yo'qotib qo'ygan. Ahloqiy mavzudagi bahs ko'rsatuvida o'sha davr yoshlarini hayajonlartirayotgan ko'pgina axloqiy muammolar haqida munozaralar yuritilar edi. **Balis** dasturning muvaffaqiyat qozonishida, shubhasiz, ko'rsatuvni maroq bilan olib boruvchi yozuvchi O'tkir Hoshimovning notiqlik san'ati qo'l keldi. Uning har bir voqeaga, mavzuga bolgan samimiyligi, u yoki bu

---

<sup>25</sup> Hayot ko'zguvchilari // Kino, 1999. №4, - B. 40.

savolni chin dildan muhokama qilishga yoshlarni chorlashi, jamoatchilikrning fikrini o'ziga tortishi yoshlar o'rtasida barqaror dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qildi. «Bahs»da kundalik turmushimizdagi eng dolzarb hayotiy, axloqiy masalalar xususida so'z ketadi. Aniq misollar bilan uning ijtimoiy tomonlarini ochishga, sabab va oqibatlarini chuqur tahlil qilishga intilingan.

Ayniqsa, «Bahs»ning «Non qadri», «Vaqt qadri» degan, loqaydlik, ichkilikbozlikni fosh etgan sonlari teleekran qarshisida o'tirgan har bir tomoshabinni ko'rsatuvning bevosita ishtirokchisiga aylantirgan. «Bahs» ham turli fikr-mulohazalarga sabab bo'lgan qiziqarli ko'rsatuvlardan biri edi. Ayniqsa, non qadri va milliy to'ylarimiz xususidagi bahslar keng tomoshabinlar ommasiga ma'qul bo'lgan. Muhtaram ota-onalar, keksa pedagoglarning ishtiroki ko'rsatuv qimmatini oshirishga, shubhasiz, katta hissa qo'shgan. Aytaylik, non qadri va to'ylarimiz haqidagi bahslarni qayta-qayta aynan takrorlash o'rniga, mavzu o'zgartirilmay, boshqacharoq shakl tanlansa bo'lar edi. Masalan, ular biror mahallada yoki biror korxonada, oliy o'quv yurti, maktab bilan hamkorlikda turli mavzudagi ko'rsatuvlar tayyorlashsa yanada kuchliroq ahamiyatga ega bo'lar edi. Bizningcha, ko'rsatuvlarning ommabopligi, ta'siri oshar edi. Yana bir fikr, ekran million-million kishilarniki. Demak, uni yoshu qari birdek tomosha qiladi. Nazarimizda, «Bahs»dan asosiy maqsad yangicha urf-odatlarini kengroq targ'ib etish, yoshlarda axloq ideallarini kamol toptirish bo'lgan.

Shunday ekan, ekran orqali yosh-yosh yigit-qizlarimizning nasihat qilishlari qanday bo'lgan ekan. Albatta, yoshlarning fikrini bilish ma'nosida bu foydali tadbir. Har holda, ko'pni ko'rgan, muayyan hayot tajribasiga ega bo'lgan kishilar ko'proq qatnashishi lozim edi.

## **2. 2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston televideniyesi taraqqiyoti.**

Mustaqillik tufayli madaniy meros va an'analarimizga munosabat ham tubdan o'zgardi. Ilgari qoralanib kelgan shaxslar, tarixiy obidalar, kitoblar o'zining haqiqiy egalariga qaytarib berildi. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi buyuk zotlar ijodini yangicha o'rganishga kirishdik. Shu asnoda «Navoiy gulshani», «Navoiyxonlik» ko'rsatuvining 30 dan ortiq soni efirga

beridi. O'zbekiston xalq yozuvchisi P.Qodirovning «Yudduzli tunlar» romani asosida 10 qismdan iborat «Bobur» videofil'mi oynai jahonga olib chiqildi. Tarixga, madaniy merosimizga bo'lgan munosabat o'zgacha tus oldi. Endi unga ilgarigidek shubha, g'umon bilan emas, balki katta ishonch bilan qarashga, tahlil etishga jazm qildik.

Bu albatta, mustaqillik sharofati. Shuning'dek, «xalqlar otasi» hukmronlik qilgan yillarda qatag'onga uchragan qator yozuvchi, shoir, san'atkorlar madaniyatimiz tarixidagi o'z joylarini egallaydilar. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Fitrat, Behbudiy, Elbek, Munavvarqori va boshqalar haqida tayyorlangan «Xotira», «Meros», «Unutilmas satrlar» kabi turkum ko'rsatuvlar yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi<sup>26</sup>.

Ayniqsa, «Ma'rifatnoma» ko'rsatuvining oynai jahonda paydo bo'lishi xalqimiz dilini ravshan etdi. Oynai jahonga oshkoralik kirib kelgach, ko'zguda hayotimiz to'la o'z aksini topa boshladi. Shunday qilib, soqov bo'layozgan o'zbekning tili va diliga to'la erk berildi. Shu asnoda ma'naviy merosimiz, tarixiy yodg'orliklar, urf-odatlarimiz haqida hikoya qiluvchi «Oltin beshik» nomli yangi ko'rsatuv dunyoga keldi. «Mulohaza» turkumidan berilayotgan adabiy, musiqiy va teatr muammolariga bag'ishlangan ko'rsatuvlar ham tomoshabinlarni befarq qoldirmadi.

Yaqin-yaqingacha o'tmishni qoralab, moziyning tagiga suv quyay edik. Tariximiz qora, kelajagimiz porloq edi. Bugunga kelib qora deganimiz oq, oq deganimiz - qora bo'lib chiqyapti. Respublika hayotida yuz berayotgan bu xildagi ijobiy o'zgarishlar televidenie faoliyatiga ham ta'sir etmay qolmadi. Avvalo, televidenie tizimida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yirik-yirik ijodiy birlashmalar ixcham tahririyatlarga aylantirilib, ijodkor uchun sog'lom muhit yaratish imkoni berildi. Ruknlar tartibga keltirilib, uning dasturdagi o'ri va vaqti aniq qilib belgilandi. Televidenie jamoasining har oyda o'tkaziladigan muloqotlariga respublika vazirliklari, muassasa, tashkilot rahbarlari taklif etilib, ular bilan

---

<sup>26</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. - Toshkent: SHarq, 2000. – B. 186.

oshkora uchrashuvlar o'tkazila boshlandi.

Natijada televidenie tahririyatlari va tegishli vazirliklar bilan hamkorlik rejalari tuzildi. Bu esa ko'rsatuvlar saviyasini yaxshilashga imkon yaratdi. Ijodiy xodimlar safini yangilash bo'yicha ham ancha ishlar qilindi. Televidenie tashviqotining hozirgi kun talabiga javob bera olmaydigan, o'z kasbiga layoqatsiz xodimlar bilan shartnoma tuzilmadi. Mehnat intizomi ham tartibga solindi. Tahririyat jamoalarining alohida bo'lib teleradiokompaniya raisi va rahbariyati bilan o'tkazgan ochiq muloqotlari tahririyatlardagi mavjud echimini kutayotgan muammolarni hal etishga amaliy yordam bo'ldi.

Televidenie tizimidagi bunday o'zgarishlar o'z samarasini bera boshladi. Izlanish samaralari efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarda yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

Prezidentimizning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat», «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay» asarlari «Axborot», siyosiy-iqtisodiy tahririyatlari tayyorlayotgan ko'rsatuvlarda keng targ'ib qilindi. O'zbekistonning taniqli va nufuzli kishilari bilan ushbu kitoblarning mazmun-mohiyati to'g'risida suhbatlar, telesharhlar uyushtirildi. Prezidentimizning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kirgan mamlakatlar rahbarlari bilan uchrashuvlari, chet el safarlari, yuksak martabali xorijiy delegatsiyalar, mehmonlarni qabul qilish marosimlari keng ko'lamda va tezkorlik bilan yoritiladi. Natijada har bir safar va uchrashuv haqida maxsus ko'rsatuv, videofilmlar tayyorlandi<sup>27</sup>.

«O'zbekiston axboroti» tahririyati ko'rsatuvlari shaklan va mazmunan o'zgardi. Xabarlar qisqa, lo'nda shaklga kirib, teletomoshabinga shu kungi respublikamiz va xorij hayotiga oid muhim voqea, yangiliklar xolislik bilan etkaziladi. «Bugun», «Haftanoma» dasturlari tashkil etildi. Har haftaning shanba kuni Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan shu mintaqa hayoti haqida hikoya qiluvchi «Turkiston» ko'rsatuvi efirga chiqa boshladi. Shuningdek, haftada ikki marta «Dunyo xabarlari» ko'rsatuvi efirga chiqdi.

---

<sup>27</sup> "O'zbekiston mustaqillik yo'lidan" turkumidagi filmlar // Kino, 1996. № 6,- B. 41.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, istiqtol mafkurasini targ'ib qiluvchi «Vatan tuyg'usi» rukni ochildi. Yangi tashkil etilgan «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «Vatanni sevmok iymondandir», «Islohot haqida suhbatlar», «O'zbekistonning yo'li bitta - olg'a yurish», «Istiqlolim - istiqbolim», «Mustaqillik va mafkura», «Istiqlol va ma'naviyat» kabi rang-barang ko'rsatuvlar eng dolzarb mavzulariga bag'ishlandi.

Bir bolaga etti qo'shni ham otalik, ham onalik qiladi deganlaridek, yosh avlodni tarbiyalash, ularni mustaqil davlatimizning munosib vorisi etib tarbiyalashda mahallalarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla faoliyatiga oid muammolar «Mening mahallam», «Hamshaharlar», «Oila» ko'rsatuvlari orqali muntazam yoritila bordi.

Qishloq turmush tarzi, fermerlik harakati, chorva fermalarining xususiylashtirilishi, davlat xo'jaliklarining shirkat xo'jaliklariga aylantirilishini izchil yoritib borayotgan «Farmon va ijro», «Xususiylashtirish - davr talabi», «Hukumat tadbirlari» ko'rsatuvlarida respublika Prezidentining odilona siyosati, iqtisodiy yo'li keng yoritildi. Respublikamizda yashayotgan yuzdan ortiq millat vakillarining o'zaro tinch-totuv, yagona oila a'zolaridek ahil bolishlari mustaqil respublikani mustahkamlashda asosiy omillardan biridir. Respublika Prezidenti va hukumati bu masalaga alohida diqqat va e'tibor bilan qaramoqda.

O'rta Osiyo respublikalari xalqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni targ'ib etuvchi «Do'stlik» telekanali muntazam efirga chiqib turdi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov va hukumat olib borayotgan siyosat millatlararo munosabatlarni nafaqat O'rta Osiyo mintaqasida, balki dunyo bo'yicha rivojlantirishga hissa qo'shajagi ko'plab xorijiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarning rivojlanishi bunga yaqqol dalildir.

O'zbekiston televideniesi ijodkorlari tayyorlagan «Ruslar» nomli ikki qismli videofil'mning Ostaninodan berilishi, shuningdek, respublikamizdagi nemislar, koreyslar faoliyatiga oid ko'rsatuvlar diyorumizda yashayotgan millat va elatlarning jipsligi, ahilligi va tinch-totuvligining yana bir namoyishi bo'ldi. «Zamondosh», «Rangin kamon», «O'zbekiston mehmonlari» kabi ko'rsatuvlarda

respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining hayoti, turmush tarzi, ozaro hamjihatligi keng yoritilmoqda.

Adabiy-dramatik ko'rsatuvlar tahririyatida shakl-shamoyili eskirgan «Miniaturalar teatri» o'rniga yangicha shakl va mazmunga ega bo'lgan «Adib tabassumi», «Nasriddin Afandi choyxonasi» kabi ko'rsatuvlar tashkil etildi. O'zbekiston mustaqilligining ikki yilligiga bag'ishlab «Adabiyot va ma'naviyat», «Istiqlol va adabiyot», «Xalq ijodi», «Meros» kabi ruknlarda xalqimizning tarixiy-madaniy boyligi, klassik merosi, qadriyatlari yoritib berildi. Xiva shaxrining 2500 yilligi, buyuk alloma Ulug'bek tavalludinmg 600, Ahmad Yassaviyning 950 yilligaga bag'ishlab turkum ko'rsatuvlar berildi<sup>28</sup>.

O'zbek adabiyotida xalqimizning faxru iftixoriga aylangan tarixiy siymolar hayoti va faoliyati yoritilgan asarlar unchalik ko'p emas. Shu bois ham ijodkorlarimiz har bir tarixiy asarga qo'l urish barobarida xalqimiz o'tmishining noma'lum sahifalarini qidirib topish mas'uliyatini zimmalariga olishga majburdirlar. O'zbekiston televideniesida «Yulduzli tunlar»ga qadar ham tarixiy asarlar muvaffaqiyat bilan yoritilib, etarlicha tajriba to'plangan edi. Respublikamizda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Hamza nomidagi Davlat mukofotining sohibi Maqsud Yunusov ushbu videofilmini tayyorlash jarayonida asarning tarixiyliigi va asliyatiga zaxa etkazmaslikka erishdi.

Eng muhimi - asarning betimsol qadimiy tili saqlab qolindi. Videofilmda aks ettirilgan davr ruhiyatiga mos musiqalar va ulug' shoir asarlarining xushovoz xonandalar tomonidan ijro etilishi tasvirlarni yanada boyitib, ta'sirchanligini oshirgan. Bu o'rinda bastakor O'lmas Rasulov hamda rassom Saidakmal Rasulovning xizmati tahsinga loyiqdir. Rollarda ishtirok etgan aktyorlar mahorati haqida ham iliq fikrlar aytish o'rinli. Ayniqsa, bosh rolni ijro etgan Muhammadjon Abduqunduzov yaratgan Bobur obrazi betakror talqin etilgan.

Dunyo adabiyotida ishq-muhabbat haqidagi qissalar va ularga bag'ishlab yaratilgan asarlar talaygina. Jumladan, ko'hna sharqning eng mashhur va mahzun qissalaridan biri Layli va Majnun haqidagi asarlardir. Bu qissaga ilk bor

---

<sup>28</sup> Abduazizova. N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari,. -Toshkent: Akademiya, 2003. –B. 116.

XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy murojaat qilib, betakror bir asar yaratdi. Shundan so'ng Layli va Majnunning ishqiy mojarolariga bag'islilab o'nlab «Layli va Majnun» dostonlari yaratildi. Shular orasida eng mashhuri va badiiy jihatdan yuksak darajada bo'lgani ulug' bobomiz Alisher Navoiy hazratlarining qalamiga mansub dostonidir.

Bu asar ne-ne ulug' shoirlaru nuqtadon fozillarni o'ziga maftun qilmagan va hayratga solmagan. Ulug' bobomizning qutlug' to'ylari kunlarida Maqsud Yunusov ana shu asar asosida kop qismli videofilm tayyorladi. Videofilmning diqqatga sazovor jihati shuki, u asosan she'riy uslubda - asar asliyatda qanday bo'lsa, shunday, ya'ni vazniga, bahrlariga iloji boricha rioya qilingan. Ayrim murakkab holatlardagina uning nasriy bayonidan foydalanilgan. Dostonda tasvirlangan jangu jadallar, Qaysning cho'lu biyobonlardagi riyozatli hayoti, uning jonivorlar ila oshno tutinishlari - jamiki shoirona tavsiflar tabiat qo'ynida tasvirga tushirilgankim, bu ham sahnanomaning ta'sirchanligini oshiradi<sup>29</sup>.

Bizningcha, mazkur sahnanoma ulug' shoir asarlariga bu qadar keng miqyosda yondashuv borasida ilk tajribadir, shunga qaramasdan, bu tajriba juda muvaffaqiyatli chiqqan. Bu muvaffaqiyatning sababi, rejissyor Maqsud Yunusovning «Layli va Majnun» dostonini, umuman Alisher Navoiy ijodini, uning ma'naviy olamini teran o'rganganligi. Rejissyor ulug' shoirning mazkur doston ruhiyatiga mos bo'lgan ruboiylari, tuyuqlari, g'azallari asosida ajoyib san'atkorlar ijrosida ashulalar tayyorlagan va bundan unumli foydalana olgan. «Layli va Majnun» siymolarini iste'dodli yosh ijodkorlar Zuhra Ashurova va Behzod Muhammadkarimov talqinida tomosha qilingan. Shahna asarining muvaffaqiyatida adabiy maslahatchi professor Alibek Rustamov, musavvir Saidakmal Rasulov va tasvirchi Saidafzal Rasulovlarning ham hissalarini beqiyosdir.

Xalqimiz, el-yurtimizning sodiq farzandlari istiqlol uchun uzoq kurashdilar. Kurashlar qurbonsiz bolmadi. Istiqlolga erishish yo'lida o'zbek xalqining ko'plab asl farzandlari halok bo'ldilar. Mustaqillik barcha sohalarda

---

<sup>29</sup> Abdurahmonov F. Mustaqillik va milliy manfaatlar. - Toshkent: Fan, 1994. -B. 145.

bolgani kabi ma'naviyatimiz, adabiyot va san'atimizga ham yangacha nuqtai nazar bilan qarash imkoniyatini berdi. Istiqlol yolida qurbon bo'lgan adiblar ijodini mukammal o'rganish va to'g'ri baholash imkoniyati tug'ildi. 1991 yili O'zbekiston televideniesi adabiy-drammatik ko'rsatuvlar tahririyati ijodkorlari Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani asosida besh qismdan iborat yangi videofil'm yaratdilar. Videofil'mda o'zbek xalqining yaqin o'tmishidagi og'ir hayoti haqida hikoya qilinadi.

Videofil'mdagi rollarni respublika teatrlarining taniqli aktyorlari ijro etadilar, Abdulhamid Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani asosidagi videofil'mi 1910 yillar voqeasidan hikoya qiladi. Videofil'm Zebi xonadonidagi voqealar bilan boshlanadi. Zebi qishloqqa dugonasi Enaxonnikiga mehmonga bormoqchi boladi. Onasining iltimosiga ko'ra Razzoq soqi mehmonga borish uchun Zebiga ruxsat beradi. Ayollar bazmida Zebini ko'rib qolgan Mingboshi unga uylanishga ahd qiladi. Zebi Mingboshiga to'rtinchi xotin bo'lib tegadi. Kundoshlar o'rtasidagi bo'lgan qarama-qarshiliklar, ig'vo va uydirma janjallar Mingboshining o'limi bilan tugaydi<sup>30</sup>.

Bu o'limda hech aybi bo'lmagan Zebi shahar to'ralari va hokimlari tomonidan sud qilinib, Sibirga badarg'a etildi. Videofil'm xalq kuylari va qo'shiqlari bilan bezatilgan. Undagi barcha qo'shiqlar Abdulhamid Cho'lpon she'rlari asosida yaratildi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida xalqimiz yuragidan chuqur joy olgan «Barhayot navolar» ko'rsatuvida Muhiddin Qoriyoqubov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Xojixon Boltaev kabi nurli siymolar haqida hikoya qilindi. «Musiqqa javoni», «Nazm va navo» turkum ko'rsatuvlari muntazam ravishda efirga uzatildi. «Anor –1992», «Raqs - 93», «Alia», «Iste'dod - 94», «Qiziqchi - 95» teletanlovlari o'tkazilib, yuzlab talantlar kashf etildi.

Ko'rsatuv va eshittirishlarning mazmun-mundarijasini tubdan o'zgartirish, ularning strategiyasi va asosiy yo'nalishlarini belgilash, axborot sohasida yagona

---

<sup>30</sup> Karimov A. O'zbekistonda televidenie. - Toshkent: Fan, 1964. – B. 45.

davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida 1992 yil 7 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi televidenie va radioeshittirish Davlat Komitetini O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga asosan mamlakatda teleradioeshittirish tashkilotini rivojlantirish, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hamda xorijiy davlatlarning teleradio tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashini muvofiqlashtirish yo'lga qo'yildi. 1994 yil 28 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Davlat televidenie va radioeshittirish kompaniyasining ko'rsatuv va eshittirishlari hajmini ko'paytirish, uning moddiy-texnika negizini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori e'lon qilindi va ushbu qarorga asosan, O'zbekiston televideniesining 3 ta kanali uzluksiz ishlashi ta'minlandi, ko'rsatuvlar hajmi 16,5 soatga va bunda televideniening o'z mahsulotlari 10 soat hajmga etkazildi.

1996 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televidenie va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi va O'zbekiston Davlat teleradiokompaniyasi joylarda hududiy bo'lmalariga ega bo'lgan O'zbekiston teleradiokompaniyasi (O'zteleradio) deb o'zgartirildi. Mazkur Farmonga asosan telekanallar faoliyati rivojlantirildi va jurnalist kadrlarni sohalarga ixtisoslashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. 1998-2008 yillar davomida «Respublika teleradiomarkaz» davlat unitar korxonasi, «O'zbektelefilm» davlat unitar korxonasi, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand, Andijon, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi Avstriyaning «Simens AG» va Germaniyaning «BFE AG» firmalarining eng zamonaviy texnikalari bilan jihozlandi<sup>31</sup>.

2010 yil davomida qolgan hududiy teleradiokompaniyalarda ham ana shunday jahon standartlariga javob bera oladigan texnik asbob-uskunalar o'rnatilishi rejalashtirilgan edi va bu rejalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

---

<sup>31</sup> Abduazizova N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari. -Toshkent: Akademiya, 2003. –B. 41.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martdagi «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga ko'ra 1998 yil iyul oyidan «Yoshlar» tele va radiokanallari tashkil etildi va telekanalning efir hajmi 16,0 soatga, radiokanalning efir hajmi kuniga 20,0 soatga etkazildi.

O'zbekiston Respubdikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrdagi «Ommaviy siyosiy targ'ibotni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga binoan, «Sport» telekanali tashkil etildi. Qarorda belgilab berilganidek, telekanal ko'rsatuvlari 2004 yil 1 yanvardan boshlab kuniga 6 soat, 2004 yil aprel oyidan boshlab esa kuniga 8 soat hajmida efirga uzatilmoqda, Rossiya televideniyasining 1 kanali ko'rsatuvlari teletranslyasiyasi esa 5 soat hajmida bo'lib, «Sport» telekanalining bir kunlik jami efir hajmi 13 soatni tashkil etdi<sup>32</sup>.

2005 yil 8 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mustaqil teleradiokanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni bilan mustaqil teleradiokanallarni yanada rivojlantirish va isloh qilish, ijtimoiy - siyoysiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarni» yanada chuqurlashtirish, aholi hamda jamiyatning har tomonlama xolis axborotga bo'lgan talab-ehtiyojlarni qondirishda mamlakatimizning elektron ommaviy axborot vositalari rolini oshirish» maqsadida O'zbekiston teleradiokompaniyasi» O'zbekiston milliy teleoradiokompaniyasiga (O'zbekiston MTREI) etib qayta tashkil etildi.

Mazkur Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining asosiy vazifalari etib; aholini, shuningdek, chet el jamoatchiligini O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy- ijtimoiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan, huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish, mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan demokratik o'zgarishlar to'g'risida keng xabardor qilish; aholining ta'lim va madaniy saviyasini oshirish, milliy an'analarni, tarixiy va ma'naviy merosni saqlab qolish, fuqarolarning ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish,

---

<sup>32</sup> <http://news.uzreport.com/uzb>.

yoshlar va o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, vatanga muhabbat va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish ruxida tarbiyalashga yo'naltirilgan tele va radiodasturlarning tematik yo'nalishlarini aniqlash va ularning professional va badiiy darajasini ta'minlash; O'zbekiston MTRK teleradiokanallari, tarkibiy bo'linmalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularning iqtisodiy mustaqilligini, axborot xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash, teleradio ko'rsatuv va eshittirishlarni tashkil qilish jarayoniga bozor mexanizmlarini tatbiq etish, ushbu sohaga mamlakatimiz hamda chet el korxonalari, tashkilotlari va moliya institutlarining sarmoyalarini jalb qilish; zamonaviy talablar hamda standartlarga muvofiq texnika bazasini yanada rivojlantirish, teleradiodasturlar tayyorlashga axborot, komp'yuter va mediateknologiyalarni joriy etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; O'zbekiston MTRK bo'linmalari ijodiy texnik xodimlarining kasb mahoratini takomillashtirish, ijodiy faolligini oshirish maqsadida ularni samarali qayta tayyorlash, malakasini oshirish uchun zarur tashkiliy shart-sharoitlar yaratish; Davlat va nodavlat xorijiy teleradiokompaniyalar, axborot agentliklari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilari teleradioeshittirish sohasida axborot almashish bo'yicha samarali xalqaro hamkorlikni amalga oshirish kabi asosiy yo'nalishlar belgilandi.

Mazkur Farmonga asosan 2006 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori e'lon qilindi.

Ushbu Farmon va Qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan kompaniyada aniq islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tarkibida quyidagilar:

- «O'zbekiston» telekanali va «O'zbekiston» radiokanali negizida «O'zbekiston» teleradiokanali» davlat unitar korxonasi;
- «Sport» telekanali va «Mash'al» radiokanali negizida «Sport» teleradiokanali» davlat unitar korxonasi;
- «Toshkent» telekanali va «Do'stlik» radiokanali negizida «Toshkent»

teleradiokanali» davlat unigar korxonasi;

- «Respublika telemarkazi», «Respublika radioeshittirish va ovoz yozish uyi», «Nukus telemarkazi» negizida «Respublika telemarkazi» davlat unitar korxonasi;

- «O'zbektelefilm» studiyasi negizida «O'zbektelefilmi» davlat unitar korxonasi; «Yoshlar» telekanali va «Yoshlar» radiokanali negizida «Yoshlar teleradiokanali» yopiq aksionerlik jamiyati;

- «Maxsus avtokorxon», «Oqtosh pansionati», «Poliklinika» davlat unitary korxonalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar teleradiokompaniyalari qayta tashkil qilindi.

2005 yildan boshlab to'rtala radiokanal dasturlari 2006 yil 21 martdan boshlab esa, «O'zbekiston» va «Yoshlar» telekanallari ham Internet tarmog'i orqali yer yuzidagi barcha mamlakatlarga tarqatilmoqda. Shuningdek, 2006 yil 14 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining xududiy bo'linmalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'goisida»gi Qarori e'lon qilindi va ushbu qaror asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar teleradiokompaniyal arming faoliyati qayta tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida Abdulhamid Cho'lponning «Kecha va kunduz», Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon», Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar», Tohir Malikning «So'nggi o'q» ko'p qismli videofil'mlari, «Vatan tuyg'usi», «Imom Moturidiy», «Burhoniddin Marg'inoniy», Ibn Sino», «Imom Buxoriy», «Jaloliddin Manguberdi», «Qomusiy alloma izidan», «Xo'ja Ahror Valiy» kabi buyuk ajdodlarimiz, Abdulla Oripov, Ozod Sharofiddinov, Matyoqub Qo'shjadov kabi zamondoshlarimiz hayoti va ijodiga bag'ishlangan illmlar, rang-barang mavzularda «Lafz». «Uvaysiy», «Tog'lik kuyov», «Qaytmas», «Imon» kabi o'ndan ortiq videoseriallari yaratildi<sup>33</sup>.

2006 yil 15 iyunda O'zbekiston Reepublikasi Vazirlar Mahkamasining «Milliy serial» ijodiy-ishlab chiqarish kompleks dasturini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori e'lon qilingach, bu yerda ushbu dastumi amalga oshirish yuzasidan

---

<sup>33</sup> O'taev O'. Televidenie-davr ko'zgusi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 69.

tegishli tadbirlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida shu kunlarda olib borilayotgan islohotlar, jumladan, mustaqil teleradiokanallarning rivojlanishi o'zining qator ijobiy natijalarini bermoqda. Kompaniya tizimida ko'rsatuv va eshittishlarning professional darajasi, badiiy saviyasi va sifatini oshirish, aholining har tomonlama xolis axborotga bo'lgan talab-ehtiyojini qondirish borasida yangi, qiziqarli teleradiodasturlar tayyorlanib, sog'lom ijodiy raqobat muhiti yaratilmoqda. Yuqorida qayd etilgan teleradio taraqqiyotiga oid o'nlab tarixiy Farmon va Qarorlarni hayotga tatbiq etishda 2005 yil may oyidan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi lavozimida ishlayotgan tashabbuskor va halol rahbar Alisher Jo'raqulovich Xadjaev va ko'p sonli jamoaning xizmatlari beqiyosdir.

Mustaqil televideniya bizning bugungi kamolida bu muqaddas dargohda qo'p yillardan buyon samarali ishlayotgan, allaqachon o'z kasbining ustasiga aylangan M.Rahimov, K.Karimjonov, S.Tursunova, K.Xo'jaeva, X.Davron, F.Bobojonov, A.Alimov, D.Umarova, G.Mahkamova, A.O'tbosarov, M.Yo'ldoshev, N.Bobojonov, K.Matyoqubov, E.Shukur, N.Norqobilov, R.Qo'ldoshev, Q.A'zarn, Y.Ismoilov, A.Abrorxo'jaev, Sh.Ibrohimov, I.Mirzo, A.Abdullaev, M.Oripov, M.Tursunova, S.Mirzaev, D.Turdialiev, B.Boboiev, M.Rahmatov, R.Mirzaev, Q.Karimbekov, R.Kamolov, S.Rasulov, F.Zoitov, Z.Begamqulova, L.Mervinskaya, A.Madrahimov kabi tajribali ijodiy xodimlar bilan birga F.Mahmudov, G.Musajonova, F.Yunusov, O.Davletova, X.Nuriddinov, J.Boborahmat, N.Eshonqul, Sh.Hamroeva, M.Kamolova, O.Toshboev, N.Rizaev, N.Umrzoqova, G.Mardonova, F.Muxammadjonova, S.Aliojonov, A.Abdusamatov, A.Hayitmetov, O.Burhonov, N.Mo'minov, S.Turdiyev, G.Ikromova, Z.Qurbonov, S.Shukurov, Sh.Qayumov, M.Jonuzoq kabi o'z nuqtai nazariga ega iste'dodli yoshlarning munosib hissasi bor<sup>34</sup>.

Ayni paytda respublikamizning yuz foiz aholisi yo'ldoshli aloqa tizimi orqali uzatilayotgan «O'zbekiston» teleradio dasturlaridan bahramand bo'lmoqda.

---

<sup>34</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. - Toshkent: SHarq, 2000. – B. 286.

E'tiborli tomoni shundaki, hukumatimiz tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga qabul qiluvchi va uzatuvchi yer stantsiyasi, yo'ldoshdan teleradioeshittirish signallarini qabul qiluvchi 327 ta maskanda kichik quvvatga ega teleradioeshittirish uzatgichlarini o'rnatish belgilangan edi. Bu yuqorida aytib o'tilgan signal qabul qilish qiyin bo'lgan aholi punktlarida oddiy signallarni qabul qiladigan antennalar yordamida bemalol teleradioeshittirishlarni qabul qilish imkoniga ega bo'ldilar.

Sun'iy yo'ldosh orqali uzatilayotgan dasturlarni nafaqat respublikamiz, balki dunyo jamoatchiligi eshitish va kuzatish imkoniyatiga ega boldi. 2008 yil aprel oyidan boshlab kunduzgi va kechki ko'rsatuvlar bilan birga tungi dasturlar yo'ldoshli aloqa tizimi orqali uzatila boshlandi. 2008 yil 16 aprelga qadar «O'zbekiston» teledasturi o'rtacha 18 soat davomida efirga uzatilayotgan edi. Bu ko'rsatkich 6 soatga oshirildi. «O'zbekiston» deb nomlangan teledasturning tungi o'rtacha 6 soatlik hajmini «O'zbekiston», «Sport», «Toshkent», «Yoshlar» teleradiokanallari hamda hududiy teleradiokompaniyalarning eng yaxshi teleko'rsatuvlari hisobidan shakllantirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Bundan asosiy maqsad - maftunkor va betakror O'zbekistonimizning qadimiy shaharlari, me'moriy obidalari, xushmanzara tabiati, xalqimizning milliy urf-odatlari hamda bugungi bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarini namoyish etishdan iborat. Istiqlol yillarida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining xalqaro munosabatlari mustahkamlanib, o'zaro teledastur va videofilmlar ayirboshlash borasida hamkorlikka keng yo'l ochilmoqda. 1996 yil kompaniya o'zining xorijiy hamkorlari yordamida ilk bora ulug' bobomiz Amir Temurning 660 yillik yubileyiga bag'ishshlangan bayram tantanalarini Samarqand shahrining Registon maydonidan dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlariga sun'iy yo'ldosh aloqa vositalari orqali to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi.

So'nggi yillarda Ozbekiston Respublikasining milliy bayramlari- «Mustaqillik kuni», «Navro'z», buyuk allomalarimizning yubiley tantanalari, xalqaro ahamiyatga molik yirik anjuman va sport musobaqalari ham muntazam ravishda xorijiy mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri uzatilmoqda.

## 2.2. Yangi davr televideniyesining xususiyatlari

Bugungi kunda turmushimizni axborotsiz tasavvur qilolmaymiz. Soʻnggi voqea-hodisalardan xabardor boʻlish, sevimli koʻrsatuv va filmlarni tomosha qilish, dam olish uchun zangori ekran qarshisida oʻtiramiz. Hozirgi globallashuv davrida televideniening yuksak texnik imkoniyatlari isteʼmolchilar uchun koʻplab qulayliklar yaratyapti. Telekoʻrsatuvlarning asosiy xususiyati shundaki, gazeta va radiodan farqli oʻlaroq, voqeani aynan teletomoshabinning koʻz oʻngida sodir etishi bilan xarakterlanadi. Bu jihat oʻz navbatida tomoshabin qalbiga real taassurot qoldiribgina qolmay, olam bilan odam yuzma-yuz boʻladi.

CHunki, axborot olayotgan tomoshabin uni koʻradi, fikr qiladi va aniq tasavvurga ega boʻladi. Lekin masalaning yana bir muhim tomoni ham bor. Yaʼni, ayni bir maʼlumot tomoshabinda ham ijobiy, ham salbiy tasavvur uygʻotishi mumkin. Televideniening informatsion dasturlari esa bu holatlarga aniqlik kiritadi. Masalan, axborotlarning asosiy qismi "(Oʻzbekiston" telekanalida "Axborot", "YOshlar" telekanalida "Davr" hamda "Toshkent;" telekanalida "Poytaxt" informatsion dasturlari orqali berib boriladi. Ushbu axborotlar tahliliy va tezkor yangiliklar sifatida efirga uzatiladi. Ana shu tezkorlikni zamonaviy texnika vositalarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi<sup>35</sup>.

Negaki, avvallari informatsion dasturlarning viloyatlardagi muxbirlari tomonidan tayyorlangan lavhalar transportlar orqali poytaxtga yuborilgan. Bu holat oʻz navbatida axborotning tezkorligi yoʻqolishiga sabab boʻlgan. YAnada aniqroq qilib aytganda, joylardan tayyorlangan xabarlar aeroport, vokzallarda qoʻyilgan maxsus qutiga kelib tushardi. Endilikda viloyat muxbirlari telemahsulotni voqea joyining oʻzidan qoʻshimcha transport xarajatlarisiz hamda ortiqcha vaqt sarflamagan holda uzatmoqdalar. Albatta, bunday qulayliklar oʻz-oʻzidan paydo boʻlgani yoʻq.

Istiqlol yillarida hukumat tomonidan Oʻzbekistonda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideni rivojlantirish islohotlarning muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Soʻnggi yillarda koʻrilgan qator chora-tadbirlar

natijasida televideniening zamonaviy texnik bazasi yaratildi. Teleko'rsatuvlarni tayyorlash va tarqatish jarayoniga zamonaviy televizion uskuna, mediateknologiyalar muntazam joriy etilyapti,

O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib raqamli televidenienga o'tdi va uni joriy etish 2007 yildan boshlandi. Prezidentimizning 2012 yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli televidenienga texnik va texnologik o'tishga doir Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori bu borada yana bir muhim hujjat bo'ldi. Quvonarlisi, qisqa vaqt ichida xonadonlarimizga raqamli televidenie kirib keldi. Endi dunyoning xoxlagan- nuqtasida onlayn tizimi orqali telekanallarimiz mahsulotlarini tomosha qilish imkoni tug'ildi.

Biz bong urayotgan raqamli televideniening odatdagi televideniedan farqi shundaki, unda tasvir va tovush tiniq, ranglar yorqin va har bir detal aniq aks etadi. Bu esa axoli salomatligi va estetikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 2017 yil oxirigacha mamlakatimizning barcha hududlari raqamli televidenienga to'liq o'tishi esa yurtimizda inson manfaatlari har narsadan ustunligining amaldagi isbotidir.

Zamonaviy texnologiyalar inson xizmatida ekan, endi ana shu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, milliyligimiz bilan sug'orilgan teleko'rsatuvlarni tomoshabin e'tiboriga havola etishga ham katta e'tibor qaratilyapti. Zamonaviy televidenie, raqamli tizim haqida shunchaki gapirishdan yiroqdamiz, albatta. Muhimi, ishlab chiqarilayotgan telemahsulotlarning foydali va ommabopligida. Tomoshabin auditoriyasining extiyojini o'rgangan holda ko'rsatuvlar tayyorlash, turli mulohazalar orqali oddiy syujetdan ham qiziqarli, jonli va hayotiy xulosalar chiqarish zarur. Chunki, muxlislar sevib tomosha qilgan serial yoki ko'rsatuvlarning qahramonlari bilan "birga yashaydi". Bunga misollar ham talaygina. Masalan, bundan 20 yillar avval deyarli barcha kanallarni egallagan Braziliya, Meksika va Amerika teleseriallari bizni o'ziga mahliyo qildi. Lekin, urf-odatlari, hayot tarzi mentalitetimizga mos bo'lmasa ham film qahramonlarining ishqiboziga aylandik. Axir qiziqarli

---

<sup>35</sup> Ma'naviyatimizning hayotbaxsh qudrati. - Toshkent: SHarq, 1999. – B. 56.

mavzuni ko‘p qismli teleserialga aylantirishning o‘ziga yarasha mashaqqati bor. YUqorida qisqacha urg‘u berib o‘tgan jihatlarni inobatga olgan holda azaliy qadriyatlarimiz, milliy ruhimizni o‘zida aks ettirgan seriallar ishlab chiqarishga turtki bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugun milliy teleijodkorlarning oldida turgan muhim vazifalardan biri-mazmunan va shaklan rang-barang, qiziqarli va tomoshabinlarga manzur bo‘ladigan teleseriallarni suratga olishdir. Hozirda bu borada amalga oshirilayotgan barcha ishlar bevosita "Milliy serial" kompleks ijodiy-ishlab chiqarish dasturi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqib amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O‘zbektelefilm" DUK ijodkorlari bu borada samarali faoliyat olib borishmoqda. Ularning ijod mahsullari qay darajada muvaffaqiyatli chiqayotganini seriallar namoyishidan ham bilsa bo‘ladi. Bularga misol tarzida "Qaytar dunyo", "Tutash taqdir", "Opa-singillar", "Oltin davrim" va "Ammajonim-ammajon" seriallarini olish mumkin<sup>36</sup>.

SHuni ham alohida qayd etish kerak, hozirgi kunda O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutida kino, televidenie va radio rejisserlari, operatorlar, ovoz rejissyorlari yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, talabalarning nazariyada olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashlariga ham katta e‘tibor qaratilgan. Masalan, o‘quv jarayonlari bevosita O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining tasvirga olish pavilonlarida, ya’ni, voqea joyida amalga oshiriladi. Bu o‘z nazbatida bo‘lg‘usi kadrlarning jarayonlarga tez kirishib keqishiga yordam beradi.

SHuningdek, institutda hozirda televidenie va kino sohasida mehnat qilayotgan mutaxassislarni jalb qilinishi yaxshi samara beryapti. Jumladan, "O‘zbekiston" telekanali bosh rejissyori Alisher Madrahimov, "(O‘zbekkino" milliy agentlig‘i rejissyori Hilol Nasimov kabilar o‘zlarining ko‘p yillik ish faoliyatlarini yoshlarga o‘rgatish barobarida, sohaning naqadar mas’uliyatli va muhimligini o‘rtoqlashmoqdalar. Bunday imkoniyatlar bo‘lajak kadrlarni yanada

---

<sup>36</sup> www.kino.uz.

izlanishga, bilim-ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishga va aholiga haqiqiy san'at va madaniyatning asl ko'rinishlarini taqdim qilishga undaydi. Chunki, o'zining qadimiy va boy tarixi bilan faxrlanadigan O'zbekiston televidenie sohasida ham davr bilan hamqadam rivojlanib boryapti. Zero, tegishli Davlat dasturlarining izchil amalga oshirilishi tufayli yaqin vaqt ichida mamlakatimizdagi har bir oila yuqori sifatli televidenie xizmatlaridan to'liq bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ladi.

2014 yil 17 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla» teleradiokanalini tuzish va raqamli teleuzatuvlarni yanada kengaytirish choralari to'g'risida»gi Qarori e'lon qilindi. Ushbu qaror asosida shu yilning 7 yanvar kuni kech soat 18.00da «Mahalla» teleradiokanalining ko'rsatuv va eshittirishlarini efirga uzatish boshlandi. O'z-o'zini boshqarish organi bo'lgan mahalla faoliyatini keng yoritish, shuningdek, kamolga etayotgan avlodni ma'naviy tarbiyalash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish, aholi turmush tarzini yaxshilash va hududlarda amalga oshirilayotgan obonlashtirish, bunyodkorlik ishlarini har tomonlama yoritish mazkur telekanalning asosiy maqsadlari sirasiga kiradi.

Oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni yaratish, oila a'zolari o'rtasida esa o'zaro hurmat va e'tiborni kuchaytirish, yoshi ulug' insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, yigit-qizlarni sog'lom va mustahkam oila qurishga ma'naviy va ruhiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, to'y va boshqa tantana, marosimlarni ortiqsa dabdabasiz o'tkazshp bo'yicha aholi o'rtasida tegishli tushunchalarni shakllantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy teledasturlarni tayyorlash telekanal faoliyatidagi asosiy vazifalardan etib belgilangan.

Shuningdek, mahalla organining milliy hunarmandchiligimiz turlari bo'lgan hunarmandchilik, kasanachilik va oilaviy biznesni rivojlantirish, hududlarni ko'kalamzorlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal qilishdagi faol ishtirokini namoyon etuvchi ko'rsatuvlar doimiy ravishda efirga uzatilishi rejalashtirilgan. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, 2015 yil mamlakatimizda «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan

ishlab chiqilgan Davlat dasturining mazmun-mohiyatini aholi orasida keng targʻib etishda ham «Mahalla»ning oʻrni katta. Telekanal bu borada amalga oshirilayotgan saʼy harakatlarni katta ishtiyoq bilan yoritib borishi bilan birga, xalqimizning kattalarga izzat, kichiklarga hurmat koʻrsatish, oʻlmas anʼana, boqiy qadriyatlar va urf-odatlarimizning yoshlar kamolotidagi oʻrni va ahamiyati, shuningdek koʻplab mavzu, keng doiradagi yuqori sifatli telemahsulotlar tayyorlash va xalqimizga taqdim etish telekanal jamoasining bosh maqsadlariga aylangan. Taraqqiyot yangicha tamoyil, oʻzgacha shakl va koʻrinishlarda odimlab boraveradi. U oʻz yoʻlida baʼzan koʻp narsalarni eʼtiborsiz qoldiradi, keraksiz narsadek chetga uloqtiradi. Yangicha qarashlarni, gʻoyalarni hayotimizga olib kiradi. Bizga qadrdon boʻlgai tuygʻu va tushunchalarga gohida eʼtiborsiz munosabatda boʻlishga undaydi. Biz esa ming yillar davomida shakllangan, asrlar silsilasidan oshib kelayotgan oʻz aqida, qarash va mezonlarimizni zamon va taraqqiyot tamoyillari bilan birgalikda uygʻunlashtiramiz. Unga yangicha ruh va koʻrinish baxsh etamiz. Zamonaviy televideniya yangi bosqich sanalgan raqamli TV dunyosida bu boradagi yondoshuv va amaliy ishlarimiz natijasini «Mahalla» telekanali timsolida yaqqol koʻrish mumkin.

### **Ingliz tilini oʻrganishda televideniyaning oʻrni**

Bugungi globallashtirish davrida biror-bir kunni OAV siz tasavvur qilib boʻlmaydi. Xususan televideniya boʻlgan talab borgan sari oshib boryapti. Mamlakatimiz va jahonda roʻy berayotgan voqea-hodisalar, yangilik va oʻzgarishlarni ommaviy axborot vositalari orqali olamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taʼkidlaganidek: "Hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televideniya va radiosiz umuman tasavvur etib boʻlmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtiiyag oʻzida ham axborot maydoni, ham ijgamoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda, desak, xato boʻlmaydi".

Bugungi kunda Oʻzbekiston televideniyasi orqali uzatilayotgan televizion chiqishlar tomoshabinlari nafaqat mamlakatimizda, balki qoʻshni davlatlar hamda

dunyoning istalgan burchagida topiladi. Keyingi yillarda milliy telekanallarimiz soni ortdi. Milliy teleradiokompaniya tizimida 13 ta telekanal o‘z ko‘rsatuvlari namoyishini yo‘lga qo‘ydi. E’tiborli tomoni, ularning aksariyati raqamli formatda efirga chiqmoqda. Hozirda onlayn tizimda O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining "O‘zbekiston", "YOshlar", "Sport", "Toshkent", "Madaniyat va ma’rifat", "Dunyo bo‘ylab", "Navo", "Kinoteatr", "Bolajon", "Oilaviy", "Diyor", "Kino", "Mahalla" telekanallari ko‘rsatuvlarini dunyoning istalgan burchagidan turib tomosha qilish imkoniyati yaratildi.

Bugun mamlakatimizda chet tilida so‘zlashish odatiy holga aylangan. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan ko‘plab xorijiy mehmonlar ham hamyurtlarimiz bilan qiynalmasdan muloqot qilmoqda. Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Negaki, ayni paytda ota-onalar farzandi bolaligidan biror xorijiy tilni o‘rganishiga alohida e’tibor bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012 yil 10 dekabrda "CHet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida"gi qarori yurtimiz ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini yanada zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan o‘qitishda dasturul amal bo‘lib xizmat qilmokda. O‘tgan davr ichida mamlakatimizdagi uslubiyat va pedagogika ilmi sohasida chet tillarni o‘rganish vazifalariga doir izlanishlar birmuncha kengaytirildi<sup>37</sup>.

Bu o‘quv jarayonini optimallashtirishdagi zamonaviy texnologiyalar, o‘qitishda asosiy yangalanish strategiyasi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, talabani (til o‘rganuvchini) o‘quv ta’limoti markaziga aylantirish, o‘rgatish - o‘rganish jarayonida teng hamkorlik sharoitini yaratish, loyihalar uslubi, chet til iutqi va uki shakllantirishning turli yo‘llarini tezkor o‘rganishning optimal uslublarini tanlash, til o‘rganishning interaktiv metodlari, lingvosotsiomadaniy metod, axborot pedtexnologiyalari, tobora rivojlanib borayotgan pedtexnologiyalar, elektron (multimedia) o‘quv qullanmalari va elektron lug‘atlar, audiomatnning kommunikativ adekvatligi,

---

<sup>37</sup> www.kun.uz.

internetdan foydalanishning bazaviy imkoniyatlari va hokazo jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda chet tillarini o'rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Yana qo'shimcha tarzda shuni ham qayd etish lozimki, o'sib kelayotgan yosh avlod manfaatlari hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda, televidenie, shu jumladan mahalliy telekanallar va radiolar orqali ularni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar, eshittirishlar tayyorlanib, ularni translyasiya qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va texnikasiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy, hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitr yordamida muntazam ko'rsatib borishni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmokda.

Umuman olganda, yurtimiz yoshlarini ham jismonan ham aqlan kamol toptirish, dunyo tan oladigan mutaxassislar etib tayyorlash ta'lim sohasining ustuvor yo'nalishidir. SHunday ekan, yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlarimizning bugungi va ertangi kundagi ilmiy salohiyatlarining xalqaro ta'lim mezonini va talablariga mos bo'lishi -ularning nafaqat ingliz tili, balki boshqa jahon tillarida ham umumkirishuv va umumhamkorlik qilishlaridagi o'zaro ilmiy va ijtimoiy munosabatlarida ravnaq topishiga etaklaydi. Bu esa o'z zamirida biz ustozlardan zamonaviy texnologiya va ilmiy qo'llanmalardan unumli foydalanishni talab etib qoladi.

Buyuk ma'rifatparvar Maxmudxo'ja Behbudiy tomonidan bundan qariyb bir asr muqaddam aytilgan "Ikki emas, to'rt til kerak" degan da'vat hali hanuz o'z qadr-qimmatini yo'qotgan emas. Globalizatsiya davrida har bir kishi uchun til o'rganishning ahamiyati kundan kunga oshib borayotir. Zotan, ana shu mezon mamlakatlararo ijtimoiy-iqgisodiy integratsiyaga omil bo'libgina qolmay, balki barcha millat va elatlarni bir-biriga yanada yaqinlashtiriladi. Ilm-fan, texnika, texnologiyalar, madaniyat hamda adabiyot yo'nalishidagi axborot va yangiliklarni o'zaro ayrboshlashga zamin yaratadi. Prezidentimiz I.Karimovning 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joriy yildan

e'tiboran barcha ta'lim muassasalarida chet tilini o'rganishning yangi tizimi joriy etildi. Televidenie orqali ingliz tilida turli ilmiy-ommabop va ma'rifiy ko'rsatuvlar, xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlar, yangiliklarning muntazam namoyish etilayotgani ham bu borada katta yordam bermoqda. Mutaxassislarning fikricha, o'rganilayotgan tilda namoyish etiladigan ko'rsatuvlarni tomosha qilish mahoratli tarjimon uchun ham, tilni endi o'rganayotganlar uchun ham birdek foydali. Bugungi kunda xorijiy tilni yaxshi o'zlashtirish uchun o'quv materiallaridan foydalanishning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun so'z boyligini yanada oshirish, to'g'ri talaffuz qilish, og'zaki nutqni yaxshilash va dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradigan jonli muloqot vositasidan ko'proq foydalanish zarur. SHu jihatlarni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bolalar va o'smirlarga chet tilini o'rgatishga qaratilgan qator loyihalarni amalga oshirmoqda.

Bugun ommaviy axborot vositalari orasida eng ta'sirchan va ommaviy tur sifatida nom qozongani shubhasiz televideniedir. SHuning uchun ham Milliy televidenie ham zamondan, ya'ni sivshshzatsiyadan orqada qolmay odimlab kelmoqda. Bu esa o'z mevasini ko'rsatmoqda. Jumladan yangi zamonaviy mediamarkaz, raqamli formatdagi efirlar, teleuskunalar o'rnatilmoqda. YUqorida takidlab o'tganimizdek keyingi yillarda milliy telekanallar soni ortdi. E'tiborli tomoni, ularning aksariyati raqamli formatda efirga chiqmoqda<sup>38</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan yurtimizda keng ko'lamli islohatlar olib borilmoqda. Qarorda belgilangan ustuvor vazifalardan biri, bugungi kun talablariga to'liq javob beradigan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim tizimiga ilg'or uslublarini tadbiq etish orqali, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin muloqotga kirisha oladigan mutaxassislarni tayyorlash yanada takomillashtirish va shu asosda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari

hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish ekanligi belgilab qo‘yilgan<sup>39</sup>.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta‘minlashga qaratilgan bu qaror pirovardida yurtimiz yoshlarining jahon sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘shishi va uning ajralmas bir bo‘lagiga aylanishini ko‘zda tutgan strategik yo‘ldir. Qarorga muvofiq chet tillarni o‘rganish tgoimida bir qator yangiliklar joriy etildi. Qarorda ko‘rsatilgan yoshlarning zamon tayaablari darajasida bilim olishlari, ularning manfaatlari va qiziqishlariga mos ravishda chet tillarni o‘qitishda ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanishni yanada takomillashtirishni, mahalliy telekanallar orqali bolalar va o‘smirlarni chet tillarni o‘rgatishga mo‘ljallangan ko‘rsatuvlar tayyorlash, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va tehnikasiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop, xorijiy badiiy hamda multiplikatsion filmlarni o‘zbek tilidagi subtitr yordamida muntazam ko‘rsatib borishni amalga oshirishni ta‘minlash yuzasidan 2013 yildan boshlab mutasaddi tashkilotlar tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, potensial kuchlarni ishga solgan holda milliy telekanallarda, jumladan "Bolajon" telekanalida chet tillarni o‘rgatishga qaratilgan ko‘rsatuvlar namoyish etila boshlandi. Hozirda "Bolajon" kanali orqali "Ingliz tili saboqlari" dasturi ("Ingliz tili saboqlari", "CHin do‘stlar", "Alifbo yulduzlari") "Katta tanaffus", "Mening inglizcha lug‘axim", "Quvnoq test", "Ingliz tili yoshlar uchun" kabi ko‘rsatuvlar efirga uzatilmoqda.

Bugungi kunda televidenie jamiyat hayotida katta ahamiyat kasb etayotganligini inobatga olgan holda chet tillarni o‘qitishda uning yordamidan foydalanish oqilona tadbir bo‘ldi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Globallashuv jarayoni kechayotgan asrimizda ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj butun dunyoda muhim ahamiyat kasb etayotganligini inobatga olib, televidenie orqali berilayotgan ko‘rsatuvlar haqidagi umumiy bir xulosa sifatida, ular asosan ingliz tilida va dasturlarning asosiy qismi dars tarzida tashkillashtirilgani va bu

---

<sup>38</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

darslarda an'anaviy metodlardan voz kechib, interaktiv dars tarzida tashkillashtirilayotgailigi ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, interaktiv dars o'rganuvchi uchun bir qancha qulayliklar yaratadi va ko'rsatuvning tomoshabinbopligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ko'rsatuvlar barcha yoshdagi til o'rganuvchilarning intellektual salohiyatini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich tarzda tayyorlanayotganligini alohida e'tirof etish lozim. Kuzatuvlarimizdan kelib chiqib, ularning xilma-xilligi ustida ham qizg'in jarayon kechayotganligini ta'kidlashimiz darkor. Kanallarda yangidan-yangi dasturlar yaratilmoqsa, ularning sifat darajasi takomillashib, aholi orasida bu ko'rsatuvlarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Televidenie ko'rsatuvlari doirasini yanada kengaytirish, ularda maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining chet tillarni o'qitishda katta malakaviy tajriba va etuk salohiyatga ega bo'lgan ustozlari darslaridan haftaning ma'lum vaqtlarida namoyish etishni taklif qilgan bo'lardik. Bu dasturlarni tomosha qilish, qo'shimcha dars sifatida, mamlakatimizdagi barcha o'quv maskanlarida til o'rganayotgan yoshlar uchun ham, til o'rgatayotgan mutaxassislar uchun ham o'ziga xos metodologik yordam vajifasini bajargan bo'lar edi. Va bu o'z o'rnida mamlakatimizning chekka hududlari yoshlari uchun ham katta imkoniyatlar eshigini ochgan bo'lar edi.

CHet tillarni o'qitish va uni targ'iboti borasida PQ-1875-sonli qarordagi televidenie uchun yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni davom etmoqda. Bizningcha, mavjud berilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ko'zlab, chet tillarda uzatiladigan maxsus teleqanal ochish bilan qaror ijrosini yanada ta'minlagan bo'lar edik. Natijada televidenie bu sohadagi o'zinig haqiqiy o'rnini egallab, yagona maqsad: o'sib kelayotgan yosh avlodning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lib kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi avlodni shakllanishiga xizmat qilgan bo'lar edi.

## **Xulosa**

Xozirgi taraqqiyot jarayonini televideniyesiz tasavvur qilish qiyin. Televideniyaning keng xalq ommasining hayotiga kirib kelayo'tgan to hozirgi davrgacha nazar solsak, bu har bir oilaning eng muhim ehtiyojiga aylangan. Darhaqiqat jamiyatning madaniy saviyasini belgilashda, madaniyatini keng targ'ib qilishda televidenie va radio o'ta muhim rol' o'ynaydi. Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 28 martdagi 167-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston teleradiokompaniyasining moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun 5,9 mln AQSh dollari, shuningdek 1,8 mlrd. Rossiya rubli miqdorida foizsiz kredit ajratildi. 1996 yil may oyida esa Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston teleradiokompaniyasini tashkil etish va uning faoliyatini takomillashtirish masalalari to'g'risidagi qarorni qabul qildi. Bu qaror radiotelevidenie sohasini yanada rivojlantirishning asosiy yonalishini belgilab berdi.

O'zbekiston teleradiokompaniyasining maqsadi va faoliyatida asosan demokratik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda ish faoliyatini olib borishi, axborotlarning mafkuradan xoli bolishini nazarda tutgan holda aholi hamda jamiyatni xolisona ishonchli va xilma-xil axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish va qoniqtirishni ta'minlashi belgilab berildi. Bundan tashqari televidenie va radio aholini demokratik jamiyat qurishga faol jalb etish, fuqarolarni umuminsoniy qadriyatlar, boy milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlar, milliy o'z-o'zini anglash, Vatanga sadoqatni shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston davlati o'zining madaniyat sohasidagi siyosatini umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi va ko'p asrlik ma'naviy-axloqiy an'analariiga suyangan holda olib bormoqda. Jamiyatda televidenie va radioning ahamiyati qanchalik yuqori bo'lsa, kinoning ham ahamiyati bundan past darajada emas.

Bu sohalaming barchasi kishilar ongiga ta'sir qilishi bilan birgalikda madaniy saviyani belgilashda ham ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasi hukumati 1996- yil 17- iyulda "O'zbekkino" davlat-aktsionerlik kompaniyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror

O'zbekistonda kino, video birlashmasini tuzish, shu bilan birgalikda "O'zbekfil'm", "O'zkinoxronika", O'zbekiston Respublikasi video markazi birlashmalarining ham xuquqiy maqomi va vakolatlarini belgilab berdi. Kinofilmlar va videofilmlar sifat darajasini yaxshilash uchun chora-tadbirlar qo'llanildi. Mazkur qarorga ko'ra, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi va Aloqa vazirligi "O'zbekkino" davlat-aksionerlik kompaniyasi uchun 1996-2000- yillarda kontrakt shartnomasi asosida kadrlar tayyorlash, "O'zbekkino" davlat-aksionerlik kompaniyasi Vazirlar Mahkamasiga 1996-2000-yillarda eng iqtidorli yoshlar vakillarini ilg'or xorijiy kinoakademiyalar va o'quv markazlariga o'qish va malaka oshirish uchun yuborish to'g'risida bir oy muddatda takliflar kiritish vazifasi belgilandi. Ayni paytda yuqoridagi tadbirlar mustaqillikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni, tarixiy shaxslarni o'rganish va jamiyatda yuz berayotgan dolzarb muammolarni aniq tasvirlab berishga qaratilgan filmlar yaratishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda videofilmlar, kinofilmlar, videodasturlarning sifat darajasini yaxshilash maqsadida "Iste'dod" tashkiloti qoshida mutaxassislar komissiyasi tuzildi.

Mazkur qarorlar qabul qilinishidan avval ham kinematografiya sohasida ulkan ishlar amalga oshirilgandi. Xususan, 1992- yil oxirlarida "O'zbekfil'm" kinostudiyasi Davlat ijodiy ishlab chiqarish birlashmasiga aylantirilib, uning tarkibida mustaqil "Inson", "Yulduz", "Vatan" studiyalari tashldl etildi. O'zbekiston Kinematografiyachilari uyushmasi qoshida esa 5 ta studiya vujudga keldi. Shuningdek, "Irisfilm", "So'g'diyona", "Iymon", "Namuna", "Samarqandfilm", "Sharqfilm", "O'sarfil'm" kinoaktyorlar ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi qoshidagi studiyalari shakllandi. Bu kinostudiyalarda suratga olingan filmlar jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalardagi o'zgarishlarni aks ettiribgina qolmay, balki o'zbek kinosida qo'yilayotgan ilk qadamlardan darak beradi. "Ko'zlarim yo'lingda", "Temir xotin", "Abdullajon", "Dallol", "Ehtiros qurbonlari" va kabi fil'mlar shular jumlasidandir.

O'zbek rejissyorlari tomonidan suratga olingan Vatanimiz tarixini aks ettiruvchi badiiy filmlar soni ko'paya boshladi. Rejissyor A.Qosimov "Yo'l

bo'lsin", "Gulistondin judo", "Gulobod va Xon Feruz" filmlarini yaratdi. Shu kabi tarixiy filmlar soni yanada ko'paydi. "Turon", "Movarounnahr", "So'g'diyona", "Marg'iyona", "Buyuk Amir Temur", "Otamdan qolgan dalalar" "O'tgan kunlar", "Voiz", "Alpomish" va "Lafz" videofilmi ham shular jumlasidandir. Bu badiiy filmlarni xalqimizga unutilgan o'tmishni esga olish, yosh avlodni tarbiyalashda tarix, urf-odat va arfanalarning ijobiy tomonlarni ochib berishda ham katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birgalikda komediya, detektiv va boshqa janriardagi zamonaviy filmlar ham suratga olindi. Bunga "Sharif va Marif", "Yoqut ko'zli tulpor", "Tilla bola", "Yulduzingni ber osmon", "Katta janjal", "Yolg'iz yodgorim", "Sevgi", "Kichkina tabib", "Chimildiq", "Charxpalak" kabi film va videofilmlar misol bo'la oladi.

Milliylik, o'zbek urf-odatlarini, o'zbek hunarmandchiligi va madaniyatini, sobiq sovet tuzumi davrida o'zbek xalqi hayotida yig'ilib qolgan muammolarni ko'rsatuvchi hujjatli filmlar soni ham ko'paydi, ularning syujetlaridagi o'zgarishlar ham jahon kinematografiya san'ati darajasiga tenglasha bordi. Misol sifatida Orol dengizi muammosini o'zida aks ettirgan "Yo'qotish", "Asorat" hujjatli filmlari yoki "O'zbekiston Mustaqillik yo'lidan" turkumidagi, "O'zbekiston oltini", "Etiqod va saxovat", "Men sebzorlikman" filmlarini keltirish mumkin.

Tarixiy ocherklarni o'zida aks ettiruvchi hujjatli filmlar - "Shahar va yulduzlar", "Behzod", "Buyuk Temur vasiyati", "Ular Germaniyada o'qishgan", "Aj istab" va boshqalar yaratildi. 1999- yilda Kanadada bolib o'tgan hujjatli filmlar festival tanlovidan "Aj istab", "Unutilmagan qo'shiqlar", "Qo'shiqning qanoti bor" hujjatli filmlari g'olib deb topilishi o'zbek kinosining dovrug'i butun dunyoga tarqala boshlaganidan dalolat beradi. Xorij prodyusserlari va kino mutaxassislari tomonidan O'zbekistonda yaratilgan hujjatli filmlarga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Xususan, germaniyalik va italiyalik mutaxassislarda chuqur taassurot qoldirgan yana bir film "Unutilmagan qo'shiqlar" deb nomlanadi. Mazkur film XX asr 20-30 yillarida qatag'on siyosati tufayli o'zbek tuprog'iga

kelib qolgan, butkul notanish sharoit va udumlarga duch kelgan koreys xalqi vakillarining fojeali qismatiga bag'ishlanadi.

Bundan tashqari Rossiyaning Irkutsk shahrida 1999-yilning kuz oylarida o'tkazilgan xalqaro kinoanjumanda V.Ishoqov "Islom Karimov: O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida", "Tashnalik" nomli hujjatli fil'mlari bilan ishtirok etdi. "O'zbektelefil'm" studiyasi ijodkorlari yaratgan "Xotira kuni", "O'zbekiston durdonalari" turkumidagi filmlar esa Yalta shahrida bo'lib o'tgan xalqaro teleanjumanda sovrinlarga sazovor bo'ldi. Yalta teleforumida "Umuminsoniy qadriyatlar, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni ifoda etgani uchun nominatsiyasi bo'yicha rejissyor E.Davidov suratga olgan "Qutlug' daraxtning ildizi va novdalari" filmiga maxsus sovrin, "O'zbekiston durdonalari" turkum filmlari esa bronza medal bilan taqdirlandi. Umuman olganda, mustaqillik sharofati bilan o'zbek kinochiligida milliylikka qaytish holatlari sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgarib boshladi. O'zbekona qarashlar, urf-odatlar va usullar bilan boyigan filmlar soni ko'paydi. Vatanni, el-yurtni, qadriyatlarni ulug'lovchi filmlarni yaratish o'zbek millatiga uning tarixiga jahon xalqlari e'tiborini tortishga sabab bo'ldi.

Vatanni sharaflash, uning qadriga etish tuyg'usi qo'shiqlarda ham o'z aksini topdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996- yil 27 avgustdagi Farmoni bilan "O'zbekiston - Vatanim manim" qo'shiq bayramini o'tkazish an'anaga aylandi. Qo'shiqlarda Vatanni, ezgulikni tarannum etish, uni e'zozlash g'oyasi ilgari surildi. S.Nazarxonning "Ulug'umsan Vatanim", Yalla guruxining "Yalla-yalla, yallolaman, yallaman", Shaxzod guruxining "Ey, aziz yurtim" kabi qo'shiqlari shular jumlasidandir. Mustaqillik yillarida O'zbekiston milliy teleradiokompaniesining xalqaro aloqalari mustaxkamlanib, boshqa mamlakatlar bilan ozaro teledastur va videofilmlar ayirboshlash sohasida hamkorlikka keng yo'l ochilmoqda. Jumladan, Turkiya teleradiokomparasiyasi (1992), Xitoy Xalq Respublikasi Radio, kino va televidenie vazirligi (1992), Polsha televideniesi (1997), Ukraina milliy telekompaniyasi (1998), Fransiyaning Frans Internasional Kanali (SFI,1999), Germaniyaning o'rta Germaniya

televidenie va radiosi (MDR, 2001), Fransiyaning ARTE France telekompaniyasi (2002), Xitoy Xalq Respublikasi SUAR Teleradioeshittirish va kinematografiya boshqarmasi (2004), Yaponiya Teleradioeshittirish korparatsiyasi (NHK, 2004), Turkiya. radio va televideniya korparatsiyasi (2004) XXR radioeshittirishlar , kinomatagrafiyalar va televidenie ishlari bo'yicha bosh boshqarmasi (2005) bilan hamkorlik to'g'risida bitim va shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnoma va bitimlar asosida xorijiy teleradiotashkilotlar bilan o'zaro axborot va teleradiodasturlar ayirboshlash, birgalikda televizion film va dasturlar yaratish, mutaxassislar malakasi va tajriba almashish sohasida keng tarmoqli hamqorlik munosabatlar o'rnatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi jaxondagi ko'pgina yirik telekompaniyalar, jumladan, Amerikaning CNN, Buyuk Britaniyaning Bi-Bi-Si, Germaniyaning DW, Yaponiyaning NHK, TBS, FUJI, Rossiya Federatsiyasining 1 kanal, RTR va NTV, Janubiy Koreyaning KBS, Turkiyaning TRT, Xitoyning CCTV va boshqa telekompaniyalar bilan doimiy ijodiy va tashkiliy-texnikaviy aloqalarga ega.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi 1996 yil xalqaro hamjamiyatda katta nufuzga ega ABU-Osiyo-Tinch okean teleradiouzatuvchilar ittifoqi tashkilotiga (bu tashkilotga dunyoning barcha nufuzli teleradiotashkilotlari, xalqaro agentliklar a'zo bo'lgan) teng xuquqli a'zo sifatida qabul qilindi. 2002-2005 yillardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi qo'shni Avg'oniston televideniesi, xususan, Shimoliy Avg'onistonning Balx, Juzjon, Shibirg'on viloyatlari televideniesini qayta tiklash va ishga tushirishda tashkiliy-texnikaviy va ijodiy yordam ko'rsatdi.

Bugungi kunda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining keng tarmoqli xorijiy aloqalari chet el jamoatchiligini O'zbekistonning siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar to'grisida keng xabardorlik qilishga, davlat va nodavlat xorijiy teleradiokompaniyalar, axborot agentliklari va shu sohadagi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikka xizmat qilmoqda.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

### **Rasmiy adabiyotlar**

- 1.1. Karimov I A. O'zbekistonning istiqloq va taraqqiyot yo'li. -Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 124 b.
- 1.2. Karimov I.A., Milliy istiqloq mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 148 b.
- 1.3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 178 b.
- 1.4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: Sharq. 1997. – 248 b.
- 1.5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 348 b.
- 1.6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 256 b.
- 1.7. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkura xalqni–xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. -Toshkent: O'zbekiston. 1998. – 247 b.
- 1.8. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-tom. –T.: O'zbekiston. 2006. – 256 b.
- 1.9. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz-yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qa'tiyat bilan davom ettirishdir. -Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 248 b.
- 1.10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 178 b.
- 1.11. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish–mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 345 b.
- 1.12. Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 144 b.

- 1.13. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
- 1.14. Karimov I.A. 2012–yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi.// Xalq so‘zi. 2012 yil 19 may
- 1.15. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 312 b.
- 1.16. Karimov I.A. Mustaqillik–barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi. Xalq so‘zi. 2013 yil 2 sentyabr.
- 1.17. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish–yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. O‘zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
- 1.18. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O‘zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqi. O‘zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
- 1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.
- 1.20. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi 2015 yil 29 mart.

## **II. Adabiyotlar:**

- 2.1. Abduazizova. N. O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari,. -Toshkent: Akademiya, 2003. -416 b.
- 2.2. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari. - Farg‘ona, 1998. – 210 b.
- 2.3. Abdurahmonov F. Mustaqillik va milliy manfaatlar. - Toshkent: Fan, 1994. -245 b.
- 2.4. Boboev H., Hamraev H., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. – Toshkent., 2001. - 112 b.
- 2.5. Golyadkin N. Televidenie vchera, segodnya, zavtra. -Moskva: Nauka, 1981. - 45 s.
- 2.6. Karimov. A. O‘zbekistonda televidenie. - Toshkent: Fan, 1964. - 245 b.
- 2.7. Ma’naviyatimizning hayotbaxsh qudrati. - Toshkent: SHarq, 1999. - 256 b.
- 2.8. Polskaya L.I. Rejissor na televidenie. -Moskva: Iskusstvo, 1978. - 63 s.
- 2.9. Rixsiev. B. To‘lqinlar qanotida. - Toshkent: Fan, 1967. -34 s.
- 2.10. Xayrulaev M., SHorahmedov D. Madaniyat va meros. -Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. - 124 b.
- 2.11. SHermammedov S., Ochildiev A. Madaniyat va sivilizatsiya. - Quvasoy, 1999. -140 b.
- 2.12. SHomaqsudov. A. Televidenie bizning do‘stimiz. -Toshkent: Fan, 1991. - 178 b.
- 2.13. O‘zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. - Toshkent: SHarq, 2000. - 428 b.
- 2.14. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. - Toshkent: SHarq, 2000. - 586 b.
- 2.15. O‘taev. O‘. Televidenie-davr ko‘zgusi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2010. - 269 b.

## **III. Davriy matbuot:**

- 3.1. Karimov I.A. "O‘zbekiston - vatanim manim" qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi qatnashchilariga //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1996. 30 avgust. Hayot

ko'zguchilari // Kino, 1999. №4, - 42 b.

3.2. Hayot ko'zguchilari // Kino, 1999. №4, - 42 b.

3.3. "O'zbekiston mustaqillik yo'lidan" turkumidagi filmlar // Kino, 1996. №6,- 42 b.

3.4. Kosheleva. V. Ko'hna tarix shodasidagi dur // Kino, 1996. №6, - 42 b.

#### **IV. Internet ma'lumotlari:**

4.1. <http://ula/uzsci/net/portal/libraru/atlas/articles/>

4.2. <http://news.uzreport.com/uzb>.

4.3. <http://www.eajc.org/geor/land>.

4.4. [http://www.ut.uz/ras/obshstvo/mi\\_vmeste\\_edini.mgr](http://www.ut.uz/ras/obshstvo/mi_vmeste_edini.mgr)

4.5. <http://www.Uzbekistan.de/ru/2007/rn0404e/htm>.

4.6. [http://www.ut.uz/rus/obshstvo/mivmeste\\_miedini.mgr](http://www.ut.uz/rus/obshstvo/mivmeste_miedini.mgr).

4.7. Social policy and economic transformation in Uzbekistan / Ed. Keith Griffm.- Geneva: UNDP: Intern. Labour office, 1995. - XIII. - 172 p.

4.8. Uzbekistan: historiya- spoleczenstwo - polityka.-Warszawa, 2001.- 538 s;  
VIII.9. [www.eajc.org/geo\\_r/land](http://www.eajc.org/geo_r/land).